

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

“Ekologiya va geografiya” kafedrası

**Umirova Ozoda Qo'zimurod qizining
5110500-geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun “Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligining
geografik tahlili” mavzusidagi bajargan bitiruv malakaviy ishi**

**Rahbar: Geografiya fanlari nomzodi,
dotsent K.E. Xidiraliev**

Guliston – 2019 y

Mundarija

Soʻz boshi	3
1 Bob. Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlari xoʻjaligi shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari.....	7
1.1. Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlariga umumiy geografik taʼrif.....	7
1.2. Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlari xoʻjaligi shakllanishining geografik asoslari.....	12
1.3. Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlari aholisi va mehnat resurslari.....	20
2 Bob. Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlari xoʻjaligining bugungi kun iqtisodiy-geografik tahlili.....	25
2.1. Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlari xoʻjaligiga umumiy tavsif.....	25
2.2. Turkiya va Armaniston davlatlari xoʻjaligining oʻziga xos tomonlari.....	35
2.3. Gruzija va Ozarbayjon davlatlari xoʻjaligining oʻziga xos tomonlari.....	39
2.4. Saudiya Arabistoni, Eron va Afgʻoniston davlatlari xoʻjaligining oʻziga xos tomonlari.....	44
Xulosa va tavsiyalar.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar	54
Ilovalar.....	56

Soʻz boshi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Janubi-gʻarbiy Osiyo mintaqasi tarkibiga Yaqin va Oʻrta Sharq hamda Kavkazortining 20 ta (Falastin hududi bilan birga) mamlakati kiradi. Davlatlar soniga koʻra mintaqa Osiyodagi eng yirik subregiondir. Janubi-gʻarbiy Osiyoning maydoni 7 mln. km² ga teng boʻlib, aholisi esa 361 mln. kishidan ortiq.

Janubi-gʻarbiy Osiyo hududi shimoliy va sharqiy tomonlarida materikka tutashgan, gʻarbiy va Janubi tomonlarida esa katta masofada dengizlar bilan oʻralgan. Undagi Armaniston, Afgʻoniston va Ozarbayjondan tashqari-boshqa barcha mamlakatlarning dunyo dengizlariga chiqa olish imkoniyatlari Janubi-gʻarbiy Osiyo IGOʻ (iqtisodiy geografik oʻmi) ning qulayligini taʼminlaydi. Maydoni va aholisining koʻpligiga koʻra Eron, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Iroq-yirik va Bahrayn, Kipr, Qatar kichik mamlakatlari hisoblanadi.

Isroil, Kipr, Turkiyaning iqtisodiy jihatdan imkoniyatlari yaxshi va, aksincha, Yaman, Afgʻoniston nochor mamlakatlar qatorida turadi. Shuningdek, Fors qoʻltigʻi mamlakatlari neft qazib chiqaradigan va undan katta daromad oladigan davlatlardan sanaladi [12].

Janubi-gʻarbiy Osiyo mamlakatlarining koʻpchiligi industrial-agrar iqtisodiyotga ega. Ammo mamlakatlar xoʻjaliklarining rivojlanish darajasida anchagina farqlar ham mavjud. Ayrim mamlakatlarda koʻp tarmoqli industrial ishlab chiqarish tashkil qilingan boʻlsa (Isroil, Turkiya, Kipr), boshqa guruh mamlakatlar, asosan, bir-ikki tarmoq-neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash sanoati (Fors qoʻltigʻi davlatlari) asosida jahonning eng serdaromad davlatlari qatorida turadi.

Boshqa mamlakatlardan Eron koʻp tarmoqli ilgʻor iqtisodiyotni barpo qilish yoʻlida ildam qadamlar qoʻyayotgan boʻlsa, Afgʻonistonda ishlab chiqarishning barcha sohalarida qoloqlik hukm surmoqda. Lekin asosiy guruh mamlakatlar (Livan, Iordaniya, BAA, Turkiya, Kipr, Isroil, Saudiya Arabistoni,

Bahrayn, Iroq) xalqaro turizmni YIM ishlab chiqarishdagi asosiy tarmoq sifatida tez sur'atlarda rivojlantirmoqda.

Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlarining asosiy undiruvchi sanoat tarmog'i, shubhasiz, neft qazib chiqarish va uni qayta ishlashdir. Fors qo'ltig'i mamlakatlarida mazkur sanoatning naqadar katta ahamiyatga egaligini quyidagi ko'rsatkichlar ham bildiradi: agar jahonda bir yilda har bir aholi jon boshiga 5 t dan neft qazib chiqarilayotgan bo'lsa, bu mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 3,3 ming t dan ko'proqni tashkil qilmoqda.

Ushbu mamlakatlarda 2017-yilda jami 1150 mln. tonnaga yaqin neft qazib olindi. Tabiiyki, qazib chiqarilgan neftning katta qismi xomashyo holatida eksportga, birinchi navbatda, G'arbiy Yevropa, Yaponiya va AQSH ga yuboriladi. Shu bilan birga, BAA, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Eron kabi mamlakatlarda yirik neftni qayta ishlash korxonalari ham tobora ko'plab qurila boshlandi. Jumladan mazkur davlatlar xo'jaligi o'zining taraqqiyot asoslariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shu jihatdan yuqoridagi mavzuni iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir [15].

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ishning tadqiqot **ob'ekti** sifatida Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligi olindi. Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligiga iqtisodiy-geografik baho berish, istiqbolda uni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash tadqiqot ishining **predmetini** belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqot ishining **maqsadi**- Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligini iqtisodiy-geografik jihatdan o'rganish asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi va hal etildi:

- Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlariga umumiy geografik ta'rif;
- Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligi shakllanishining geografik asoslari;
- Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari aholisi va mehnat resurslari;
- Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligiga umumiy tavsif;

-Turkiya, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Eron va Afg'oniston davlatlari xo'jaligining o'ziga xos tomonlari.

Tadqiqot ishidagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar. Ushbu doirada bajarilgan tadqiqot ishining **ilmiy yangiligi**, Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani nuqtai nazaridan ochib berilganligi bilan ifodalanadi. Shuningdek, tadqiqotda quyidagi muammolar o'z echimini topgan:

-Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlariga umumiy geografik ta'rif berildi;

-Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligi shakllanishining geografik asoslari yoritildi;

-Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari aholisi va mehnat resurslari o'rganildi;

-Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligiga umumiy tavsif yoritildi;

-Turkiya, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Eron va Afg'oniston davlatlari xo'jaligining o'ziga xos tomonlari ilmiy o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy-tahliliy xulosa hamda tavsiyalaridan respublikamiz xo'jaligi, uning tarikibi, shakllanishi va uning oldidagi muammolarni hal etishda, jumladan maktab, littsey, oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari mazmunida berilgan jahon xo'jaligi, subregionlar xo'jaligi mavzularini o'rganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot mavzusining tarkibiy tuzilishi. Ish kirish, ikki bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat.

Ishning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Birinchi bob-"Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligi shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari" da Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlariga umumiy geografik ta'rif berilib, xo'jaligi shakllanishining geografik asoslari, aholisi va mehnat resurslari xususiyatlari o'rganilgan.

Ikkinchi bob-"Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligining bugungi kun iqtisodiy-geografik tahlili" da-Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligining

umumiy tavsifi, hamda Turkiya, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Eron va Afg'oniston davlatlari xo'jaligining o'ziga xos tomonlari yoritib berilgan.

Tadqiqotning **xulosa va tavsiyalar** qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilib, muallifning ushbu mavzu bo'yicha tavsiya va takliflari keltirilgan.

1 Bob. Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlari xoʻjaligi shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari

1.1. Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlariga umumiy geografik taʼrif

Janubi-gʻarbiy Osiyo mintaqasi tarkibiga Yaqin va Oʻrta Sharq hamda Kavkazortining 20 ta (Falastin hududi bilan birga) mamlakati kiradi. Davlatlar soniga koʻra mintaqa Osiyodagi eng yirik subregiondir. Janubi-gʻarbiy Osiyoning maydoni 7 mln. km² ga teng boʻlib, aholisi esa 361 mln. (2013-yil iyul oyiga nisbatan) kishidan ortiq **(1-ilova)**.

Janubi-gʻarbiy Osiyo hududi shimoliy va sharqiy tomonlarida materikka tutashgan, gʻarbiy va Janubi tomonlarida esa katta masofada dengizlar bilan oʻralgan. Undagi Armaniston, Afgʻoniston va Ozarbayjondan tashqari-boshqa barcha mamlakatlarning dunyo dengizlariga chiqa olish imkoniyatlari Janubi-gʻarbiy Osiyo IGOʻ (iqtisodiy geografik oʻmi) ning qulayligini taʼminlaydi. Maydoni va aholisining koʻpligiga koʻra Eron, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Iroq-yirik va Bahrayn, Kipr, Qatar kichik mamlakatlari hisoblanadi [12].

Isroil, Kipr, Turkiyaning iqtisodiy jihatdan imkoniyatlari yaxshi va, aksincha, Yaman, Afgʻoniston nochor mamlakatlar qatorida turadi. Shuningdek, Fors qoʻltigʻi mamlakatlari neft qazib chiqaradigan va undan katta daromad oladigan davlatlardan sanaladi.

Mintaqa hududining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari xilma-xil va hududiy jihatdan katta tafovutlarga ega. Mintaqaning oʻrta va Janubi kengliklaridagi qaqrab yotgan keng hududlardan esa faqat tuya va mayda mollar yaylovi sifatida foydalaniladi.

Janubi-gʻarbiy Osiyoning mineral resurslari-xrom (Turkiya), polimetall mdalari (Eron va Turkiya), fosforit va kaliy tuzlari (Isroil, Iordaniya) kabilarning anchagina zaxiralari bor. Ammo mintaqaning asosiy boyligi neft va tabiiy gazdir. Fors qoʻltigʻi mamlakatlarining yer bagʻrida jahon neft zaxiralarining 2Gʻ3 qismi

to'plangan. Neft zaxiralarining hajmi bo'yicha jahonning birinchi «beshligi»ni Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Iroq, Eron va Birlashgan Arab Amirliklari davlatlari tashkil qilishining o'zi qo'ltiq-bo'yi mamlakatlarining bu masaladagi mavqeyi naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlari ishlov beriladigan yer va suv resurslariga juda kambag'al ekanligini ham ta'kidlamok kerak. Mintaqa aholisi, asosan, tabiiy o'sish hisobiga ancha tez ko'paymoqda. Gruziya, Armaniston, Isroil va Kipmi hisobga olmaganda, mintaqa mamlakatlari aholisi o'rtasidagi tug'ilish ko'rsatkichlari jahondagi eng yuqori darajalar (25-30 promille) ni tashkil qiladi.

Aholisi soniga ko'ra mintaqa mamlakatlari turlicha kattalikka ega. Eron, Turkiya va Iroq mamlakatlarida mintaqa aholisining yarmidan ko'pi yashaydi.

Mintaqa mamlakatlari bo'ylab aholining joylashishida ham katta tafovutlar mavjud. O'rtacha har 1 km^2 maydonga 52 kishidan to'g'ri kelgani holda, aholi nisbatan zich yashaydigan O'rta, Qora va Kaspiy dengiz bo'ylarida, tog' oralig'i vodiylari va suv bilan ta'minlangan vohalarda o'rtacha zichlik 50-100 kishidan («Atlas»ga qarang) to'g'ri keladi. Baland tog'li va Janubi cho'l hududlarida esa aholi ancha siyrak joylashgan - 1 km^2 maydonda 1-10 kishi yashaydi. Aholining aksariyat qismi o'troq holda sanoat, dehqonchilik va transport sohalarida xizmat qilsa, Arabiston yarimoroli, Eron va Afg'onistonning tog'li cho'llarida millionlab kishilar hamon o'z chorva mollari izidan ko'chmanchilik qilishadi.

Janubi-g'arbiy Osiyoda aholining o'rtacha urbanizatsiya darajasi 70% dan yuqori. Shahar aholisining salmog'i ayrim mamlakatlarda 50-55% dan oshmagani holda, Isroil va iqlimi juda qurg'oqchil Kuvayt, Bahrayn, Qatar kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkich 91-98 % ni tashkil qiladi[16].

Janubi-g'arbiy Osiyo aholisining milliy-etnik tarkibi juda murakkab. Unda bir millatli (ko'pchilik arab davlatlari) hamda ko'p millatli (Afg'oniston, Eron, Iroq, Turkiya) mamlakatlar mavjud bo'lib, ularda ko'proq arab, fors, turk, yahudiy tillarida so'zlashuvchi xilma-xil milliy guruhlar yashaydilar.

Janubi-gʻarbiy Osiyo mamlakatlari davlat tuzumiga koʻra ham ancha xilma-xillikka ega. Agar Saudiya Arabistonida mutlaq teokratik monarxiya, Qatar va Ummonda mutlaq monarxiya, Bahrayn, Iordaniya va Kuvayt da konstitutsion monarxiya, Birlashgan Arab Amirliklarida har 5 yilga saylab qoʻyiladigan federativ monarxiya - siyosiy boshqaruv tartibi mavjud boʻlsa, mintaqaning boshqa davlatlarida boshqaruvning respublika siyosiy tuzumi faoliyat koʻrsatmoqda. Aholi soniga koʻra Turkiya, Eron, Afgʻoniston, Iroq, Saudiya Arabistoni davlatlari yetakchilik qiladi. Umumiy aholining 60% qishloqlarda istiqomat qiladi.

Janubi-gʻarbiy Osiyo mamlakatlarining koʻpchiligi industrial-agrar iqtisodiyotga ega. Ammo mamlakatlar xoʻjaliklarining rivojlanish darajasida anchagina farqlar ham mavjud. Ayrim mamlakatlarda koʻp tarmoqli industrial ishlab chiqarish tashkil qilingan boʻlsa (Isroil, Turkiya, Kipr), boshqa guruh mamlakatlar, asosan, bir-ikki tarmoq - neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash sanoati (Fors qoʻltigʻi davlatlari) asosida jahonning eng serdaromad davlatlari qatorida turadi. Boshqa mamlakatlardan Eron koʻp tarmoqli ilgʻor iqtisodiyotni barpo qilish yoʻlida ildam qadamlar qoʻyayotgan boʻlsa, Afgʻonistonda ishlab chiqarishning barcha sohalarida qoloqlik hukm surmoqda. Lekin asosiy guruh mamlakatlar (Livan, Iordaniya, BAA, Turkiya, Kipr, Isroil, Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Iroq) xalqaro turizmni YIM ishlab chiqarishdagi asosiy tarmoq sifatida tez surʼatlarda rivojlantirmoqda.

Janubi-gʻarbiy Osiyo mamlakatlarining asosiy undiruvchi sanoat tarmogʻi, shubhasiz, neft qazib chiqarish va uni qayta ishlashdir. Fors qoʻltigʻi mamlakatlarida mazkur sanoatning naqadar katta ahamiyatga egaligini quyidagi koʻrsatkichlar ham bildiradi: agar jahonda bir yilda har bir aholi jon boshiga 5 t dan neft qazib chiqarilayotgan boʻlsa, bu mamlakatlarda ushbu koʻrsatkich 3,3 ming t dan koʻproqni tashkil qilmoqda. Ushbu mamlakatlarda 2012-yilda jami 1150 mln. tonnaga yaqin neft qazib olindi. Tabiiyki, qazib chiqarilgan neftning katta qismi xomashyo holatida eksportga, birinchi navbatda, Gʻarbiy Yevropa,

Yaponiya va AQSH ga yuboriladi. Shu bilan birga, BAA, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Eron kabi mamlakatlarda yirik neftni qayta ishlash korxonalari ham tobora ko'plab qurila boshlandi.

Hozirgi vaqtda Fors qo'ltig'i mamlakatlarida jami 500 mln. t gacha neft qayta ishlanmoqda. Bu qazib chiqarilayotgan neftning 45 %i demakdir. Asosan, Sharqiy Afrika va Janubi Osiyo ajnabiy yollanma ishchilari xizmat qilayotgan bu tarmoq Saudiya Arabistoni, Eron, Kuvayt, BAA kabi mamlakatlar eksportining 90-95% ini ta'minlamoqda [15].

Ishlov beruvchi sanoat ko'proq Turkiya, Isroil, Eron, Kavkazorti respublikalarida tarkib topgan. Ularda qadimiy sanoat tarmoqlari - yengil (to'qimachilik) va oziq-ovqat sanoatlari bilan bir qatorda, ko'pgina og'ir sanoat tarmoqlari ham nisbatan yaxshi rivojlangan. Metallurgiya Turkiya, Gruziya va Eronda, mashinasozlik Turkiya va Isroilda, kimyo sanoati Turkiya, Ozarbayjon va Eronda katta o'rin tutadi.

Fors qo'ltig'i mamlakatlarida neft va tabiiy gaz asosida issiqlik elektr energiyasi, neft kimyosi tarmoqlari tez rivojlanmoqda. Mintaqaning deyarli barcha mamlakatlari sanoatida yengil va oziq-ovqat sanoati katta ahamiyatga egadir. Mamlakatlarning yengil sanoatida to'qimachilik, ayniqsa, jun va charmdan tayyor ust-bosh kiyimlari va trikotaj ishlab chiqarishning o'mi katta. Bunda milliy hunarmandchilik (gilam to'qish, kashtachilik mahsulotlari, metall buyumlari), ayniqsa, Eron, Turkiya, Kavkazorti respublikalarida yaxshi rivojlangan.

Haqiqatdan ham, subregionda, asosan, neft (Fors ko'rfazi davlatlari, Turkiya, Ozarbayjon, Armaniston) mashinasozlik (Turkiya, Eron, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston), metallurgiya (Turkiya, Eron, BAA) va kimyo sanoatlari (Eron, Turkiya, Ozarbayjon) rivojlanmoqda. Yengil va oziq-ovqat sanoati Janubi-g'arbiy Osiyoning barcha davlatlarida rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Biroq, bu tarmoq aksariyat mamlakatlar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli ta'minlay olmaydi. Suv tanqisligi ana shunday

oqibatlamining asosiy sababchisidir. Hozirgi ilg'or gidrotexnika usullaridan Isroil (tomchilatib sug'orish), Suriya, Iroq (Frot daryosi suvlaridan sug'orishda foydalanish), Saudiya Arabistoni, Kuvayt (dengiz suvini chuchuklashtirish) mamlakatlaridagina ma'lum darajada foydalanilmoqda.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan dehqonchilik-Turkiya, Kipr, Livan, Isroil va Kavkazorti respublikalarida, chorvachilik esa arab davlatlarida rivojlangan. Asosiy oziq-ovqat ekinlari bo'lgan donli ekinlardan: bug'doy, arpa, mak- kajo'xori, sholi, tariq ko'proq Turkiya, Eron, Suriya, Iroq, Afg'onistonda ekiladi. Texnik ekinlardan: paxta, moy bemvchi ekinlar Turkiya, Suriya, Iroq, Ozarbayjon, Eronda, qandlavlagini Turkiya, Kavkazorti respublikalarida ekish ahamiyatli.

Haqiqatdan ham, qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i dehqonchilik hisoblanadi. Asosan, sug'orma dehqonchilik rivojlangan, iste'mol uchun bug'doy, makajo'xori, arpa yetishtiriladi. O'rta dengizbo'yi davlatlarida sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik rivojlangan bo'lib, ular bilan bir qatorda zaytun yetishtirish katta o'rin egallaydi va aynan mazkur dehqonchilik turi bo'yicha mintaqa jahonda yetakchilik qiladi. Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus meva, donchilik, Eronda xurmo, sitrus mevalari, qand lavlagi, paxta, Iraq, Suriya va Isroilda paxta, tamaki va xurmo yetishtirish rivojlangan. Chorvachilikda Turkiya angor echkilar boqish- ga, Arabiston yarimoroli davlatlari tuyachilikka, Eron va Afg'oniston- da qorako'lchilikka ixtisoslashgan. Xizmat ko'rsatish sohalari orasida transport va turizm katta salmoqqa ega.

Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlarida transport nisbatan yaxshi rivojlanmagan. Eng ommaviy transport hisoblanadigan temiryo'l transporti, asosan, Turkiya, Eron, Kavkazorti respublikalari uchun ahamiyatli. Shu bilan birga, Afg'oniston va ko'pgina arab mamlakatlarida temiryo'llar umuman yo'q. Avtomobil transporti ham Turkiya, O'rta dengiz bo'yi va Kavkazorti mamlakatlari hamda arab davlatlarida tez rivojlanmoqda. Dengiz transporti esa ma'lum darajada Eronda, Turkiyada ahamiyatliroq. Boshqa davlatlarda esa ular

dengiz bo'yida joylashgan bo'lishlariga qaramay, bu transport tarmog'i juda kuchsiz **(2-ilova)**.

Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra ko'p tarmoqli va tor ixtisosli mamlakatlar guruhlariga bo'linadi. Ko'p tarmoqli mamlakatlar guruhi mintaqaning shimoli va shimoli-g'arbida joylashgan Turkiya, Isroil, Eron, Livan, Kipr, Suriya, Iroq hamda Kavkazorti respublikalaridan tashkil topgan. Ularda ishlov beruvchi sanoat ko'proq rivojlangan. Qishloq xo'jaligi va transport ham nisbatan yaxshi iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega. Har bir mamlakatda yaxshi rivojlangan rayonlar bilan birga ancha sust rivojlangan hududlar ham mavjuddir.

1.2. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligi shakllanishining geografik asoslari

Haqiqatdan ham, Janubi-G'arbiy Osiyo Yaqin va O'rta Sharqning katta qismini egallab, Kichik Osiyo yarim orolini, Armaniston va Eron tog'ligini, Mesopotamiya pasttekisligini, Arabiston yarim orolini, Kipr orolini, shuningdek, Fors ko'rfazi va Qizil dengizdagi qator kichik orollarni o'z ichiga oladi. Janubi- G'arbiy Osiyoni egallagan mamlakatlarning umumiy maydoni 7 mln. km² ga teng bo'lib, butun Osiyoning 15 % maydonini egallaydi, aholisi esa 361 mln. (2013-yil iyul oyiga nisbatan) kishidan ortiq [11].

Bu mintaqaning geografik o'rni dunyoning uch qismi bir-biri bilan tutashgan joyda (Osiyo, Afrika, Yevropa), muhim havo yo'llari va dengiz yo'llari chorrahasida (Qora dengiz, Bosfor va Dardanell bo'g'zlari, Marmar dengizi, Egey dengizi, O'rta dengiz, Suvaysh kanali, Qizil dengiz, Bobil-Mandab bo'g'ozi), shuningdek bu yerda boy neft konlarining mavjudligi uning katta iqtisodiy va strategik ahamiyatini belgilaydi.

Janubi-G'arbiy Osiyo yer sharidagi siyosiy jihatdan faol mintaqalaridan biri hisoblanadi. Kishilik jamiyati rivojining hamma tarixiy pog'onalarida murakkab

iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, bu yerda buyuk imperiyalar va kichik davlatlarning bunyod bo'lishi va tarqalib ketishi harbiy g'alabalar va buzg'unchiliklar natijasidir.

Tarixiy manbaalar va ma'lumotlar Janubi-g'arbiy Osiyoda ilk qadimiy insonlar faoliyati 35 ming yillar ilgari shakllana boshlaganligini ko'rsatadi. Bu hududda eramizdan avvalgi 5-4 ming yilliklarda ilk dehqonchilik manzilgohlari paydo bo'lgan bo'lib, miloddan avvalgi 3 ming yilliklarda qadimiy davlatlar yuzaga kelgan. Mintaqa siyosiy hayotida aholi o'rtasida tarqalgan diniy qarashlar ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, Janubi-g'arbiy Osiyo hududi xristian va islom kabi dunyoviy dinlar hamda mahalliy din hisoblanuvchi iudaizm dinlari paydo bo'lgan va rivojlangan markaz bo'lib hisoblanadi. Ko'p davrlar davomida turli Yevropa davlatlari, Misr qo'l ostida bo'lgan mintaqa davlatlari 630 yillarda arab xalifaligiga birlashtirildi.

Janubi-g'arbiy Osiyo hududida shakllangan Usmoniylar imperiyasi mintaqa siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1453 yilda Maxmud II tomonidan mintaqa hududi Usmoniylar imperiyasiga birlashtirilgan bo'lib, XV asrda u o'zning eng yuqori rivojlanish davrini boshidan kechirgan. XVIII-XX asr boshlarigacha bo'lgan davrlaroralig'ida esa u ba'zan siyosiy ahamiyati oshgan, ba'zi davrlarda jahon siyosatida o'z o'rnini yo'qotib qo'ygan holatda mavjud bo'lgan. Birinchi Jahon urushida Germaniya imperiyasi tomonida jang qilgan mazkur imperiya mag'lubiyatdan so'ng Antanta a'zolari tomonidan bo'lib olindi.

Jahon siyosiy kartasi shakllanishining yangi va eng yangi davrlarida geografik o'rnini juda qulay bo'lgan Janubi-g'arbiy Osiyoga ko'plab yirik davlatlar tomonidan qiziqish kuchayib ketdi. 1869-yilda Suvaysh kanalining qurilishi, boy neft va metall ruda konlarining ochilishi, qishloq xo'jalik xom ashyosi, mehnat resurslarining naqd arzon manbai-bularning hammasi mintaqaning iqtisodiy, siyosiy va harbiy-strategik ahamiyatini oshirdi, hamda imperialistlararo kurashning zo'rayib ketishiga, asosan Angliya, Fransiya, keyinchalik Germaniya va AQSH

o'rtasida hududlarni bo'lib olishga va uning siyosiy xaritasini o'zgarishiga olib keldi.

Jahon urushidan so'ng Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlari uchun kurash boshlandi. Birinchilardan bo'lib mustaqillik uchun kurashda 1919-yil Afg'oniston g'alabaga erishdi. 1920-yil Eron suverentetini qo'lga kiritgan, 1923-yil Turkiya Respublika e'lon qilindi.

Jahon urushi mintaqanig siyosiy xaritasiga katta o'zgarishlar olib keldi. Milliy ozodlik harakatlarining ko'tarilishi natijasida 1943-yil Suriya va Livan, 1946-yil Iordaniya siyosiy mustaqillikka erishdi. Keyinchalik monarxiya tuzumi Iroq va Yamanda ag'darib tashlandi. 1947-yil BMT Bosh Assombliyasi qaroriga binoan Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan Falastin ikki davlatga: yahudiylar davlati - Isroil va arab davlati - Falastinga ajratildi.

Biroq 1948-yil imperialistlar va sianistlarning kelishmovchiligi natijasida BMT qaroriga xilof ravishda Isroil Falastin davlati va Yerusalim hududining katta qismini bosib oldi. Isroilning birinchi agressiyasi ketidan yana uchta arab davlatlariga qarshi bosqinchilik urushi bog'lanib ketdi. 1956-yilda u Misrga qarshi uch yoqlama agressiyaning qatnashchisi bo'ldi (Angliya va Fransiya bilan birgalikda). 1967-yilda Misrga qarashli butun Sinay yarim orolini va Suriyaga qarashli G'ulon tepaliklarini bosib oldi. 1973-yilda Misrga qarshi Isroilning to'rtinchi urushi bo'ldi. 1982-yildagi Isroil bilan bog'liq beshinchi Yaqin Sharq urushi Livanda tinch Livan va Falastin aholisining tinchini buzgan zo'ravonlik va qonli ko'rinishi bilan farq qildi. Falastinning 3 mln. dan ortiq arab aholisi o'z yeridan haydab chiqarildi, davlatchilik qonun huquqlaridan mahrum qilindi. BMT ning Isroil bosib olgan hududlarni ozod qilinishi haqidagi qaroriga qaramasdan ahvol oldingidek qolmoqda.

1960-yil Kipr Respublikasi tashkil topdi. 1961-yil Quvayt, 1967-yil YaXDR (1990-yil YaAR bilan birlashdi), 1971-yil Baxrayn, Qatar, BAA mustaqillikka erishdi.

Siyosiy mustaqillikka erishgan Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari oldida yangi,

lekin kam ahamiyatga ega bo'lmagan muammo-iqtisodiy mustaqillikka erishish butun bo'yi bilan ko'ndalang turardi. Milliy iqtisodiyotni tashkil qilish va rivojlantirishda, xorijliklarning aralashuvidan ozod bo'lishda, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardagi kurash qiyin sharoitda kechdi. Mintaqa mamlakatlari davlat tuzumiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Intensiv ijtimoiy o'zgarishlar yo'lini tanlagan respublikalar - Afg'oniston, Yaman, Suriya, Iroq, Livan. Monarxiya tuzumi Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Quvayt, Qatar, Baxrayn, Ummonda hali ham saqlanib qolgan.

Janubi-G'arbiy Osiyo siyosiy xaritasida quyidagi davlatlarni ko'rish mumkin: Afg'oniston, Eron, Turkiya, Kipr, Isroil; arab davlatlari-Suriya, Livan, Iroq, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Quvayt, Baxrayn, Yman, Ummon. SHu bilan birga Abxaziya, SHimoliy Kipr turk respublikasi, Janubi Osetiya va Falastin davlati kabi qisman tan olingan va Tog'li Qorabog' respublikasidek tan olinmagan mamlakat va hududlar ham mavjud. Mintaqa siyosiy barqarorlik darajasiga ko'ra nisbatan notinch hudud hisoblanadi. Mintaqa davlatlari orasida monarxiya davlat tuzumiga ega bo'lganlari bilan bir qatorda, respublikalar soni ham ko'p (**1.2.1-jadval**). Region davlatlari davlat tuzumiga kora mutloq teokratik, konstitusion, federal monarxiya davlatlariga va respublika davlatlariga bolinadi.

Mintaqa tabiiy geografik joylasuviga ko'ra dunyodagi eng yirik yarimorol Arabiston va Kichik Osiyo yarimorolini egallagan. Bu regiondagi Afg'oniston, Armaniston va Ozarbayjondan tashqari barcha davlatlar dengiz bo'yida joylashgan. Bu holat mintaqa geografik o'rnining nisbatan qulayligini ko'rsatib beradi.

Ko'pchilik davlatlarning dengiz bo'yida joylashganligi geografik o'zni qulayligining bir jihati hisoblansa, bundan tashqari, uning Yevropa, Shimoliy Afrika va Hindistonga yaqinligi, muhim dengiz va havo yo'llarida joylashganligi, neft va tabiiy gazga boyligi ham ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Bu regionni iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlatlari: Turkiya, Isroil, Kipr. Eng qoloqlari: Afg'oniston, Yaman.

Janubi-G'arbiy Osiyoning dunyo miqyosida tutgan o'zni quyidagicha: bu

region er shari maydoninig 4,6 % ini egallagan; dunyo aholisining 4,6 % ini o'z ichiga oladi; dunyo bo'yicha YAIM ning 2,6 % ini shu region beradi; dunyo bo'yicha yalpi eksport mahsulotining 3, 7 % i shu regionga to'g'ri keladi.

1.2.1-jadval. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari haqida umumiy ma'lumot

№	Davlatlar	Maydoni, ming km.kv.	Davlat tuzumi	Poytaxti
1.	Afg'oniston	652,1	respublika	Qobul
2.	Baxreyn	0,7	monarxiya	Manama
3.	Isroil	14,1	respublika	Tel'-Aviv
4.	Iordaniya	98,3	monarxiya	Amman
5.	Iroq	435,1	respublika	Bag'dod
6.	Eron	1648,0	respublika	Tehron
7.	Yaman	528,0	respublika	Sana
8.	Qatar	11,4	monarxiya	Doxa
9.	Kipr	9,3	respublika	Nikosiya
10.	Quvayt	17,8	monarxiya	El-Quvayt
11.	Livan	10,4	respublika	Bayrut
12.	BAA	83,6	monarxiya	Abu-Dabi
13.	Ummon	212,5	monarxiya	Maskat
14.	Falastin	6,3	-	Quddus
15.	Saudiya Arabistoni	2150,0	monarxiya	Ar-Riyod
16.	Suriya	185,2	respublika	Damashq
17.	Turkiya	780,6	respublika	Anqara
18.	Armaniston	29,7	respublika	Erevan
19.	Ozarbayjon	86,6	respublika	Boku
20.	Gruziya	69,7	respublika	Tbilisi

Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasi geografik jihatdan quyidagi kichik subregionlarga **ajratiladi**: Kavkazorti, Kichik Osiyo, Kopetdog', Arman va Eron yassi tog'liklari, Messopotamiya, Arabiston yarim oroli, Levant.

Siyosiy ahamiyat nuqtai nazaridan esa uchta kichik mintaqqa **ajratiladi**: Yaqin SHarq (Afrika qismidan tashqari), O'rta Sharq, Janubi Kavkaz.

Janubi-g'arbiy Osiyo hududining asosiy qismi Al'p burmalanishi oblastiga tegishli bo'lib, Janubi Yevropa tog'lar tizimining davomi hisoblanadi. Tog'lar yassi tog'liklar ko'rinishida mintaqaning chekka qismlarida mavjud bo'lsa, markaziy qismlar nisbatan past hududlar bo'lib, yassi tog'liklardan iborat.

Evrosiyaning asosiy qismi Al'p-Himolay burmali mintaqasi tog'lari ko'tarilganda ularning janubi-g'arbiy chekkasida hosil bo'lgan Messopotamiya bukilmasi neogen to'lishi natijasida shakllangan. Janubi-g'arbiy Osi kelib chiqishiga ko'ra Afrika platformasining bir qismi hisoblanadi. U Afrikadan neogen to'rtlamchi davrda Qizil dengiz grabenini hosil bo'lishi bilan uzil-kesil ajralgan.

Hosil bo'lishining umumiyliigi, tropik mintaqada joylashganligi paleoiqlimiy sharoiti va hozirgi iqlimining o'xshashligi, organik dunyosining bir xilligi Arabiston yarim orolini aslida Sahroi Kabirning davomiga aylantiradi.

Janubi-g'arbiy Osiyoni uch tomondan Hind okeanining shimoli-g'arbiy qismidagi yosh dengizlar o'rab turadi. Bular yer po'sti yoriqlari vujudga kelgan Qizil dengiz, Adan va yaoman qo'ltiqlari, tog' oldi bukilmasida hosil bo'lgan Fors qo'ltig'i hamda okean tipidagi tektonik botiqda paydo bo'lgan Arabiston dengizidir. Barcha dengizlarga yuqori harorat ostida qizigan qit'alar, musson shamollari ta'sir ko'rsatadi va ular suvi haroratining yuqoriligi hamda yuqori darajada sho'rlanganligi bilan ajralib turadi.

Yuzadagi suvlar may oyidan avgust oyigacha eng iliq bo'ladi: Arabiston dengizida Q29 gradus S, Q30 gradus S, Qizil dengizda Q32 gradus S gacha, Fors qo'ltig'ida Q35 gradus S gacha yetadi. Bu dunyo okeani yuzasida kuzatiladigan suvning eng yuqori temperaturasidir. Hind okeanining shimoli-g'arbiy qismida 800 m. chuqurlikkacha Q12 gradus S harorat saqlanadi. O'rtacha yog'in miqdori 100-

150 mm.dan 500-750 mm.gacha bo'ladi.

Kuchli bug'lanish va quruqlikdan oqib keladigan suvning kamligi Hind okeani suvi sho'rligining yuqori bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Arabiston dengizida suvning sho'rligi darajasi 36-36,5 ‰, Fors qo'ltig'ida 37-39 ‰, Qizil dengizda 41‰. Bu Dunyo okeani suvidagi eng yuqori sho'rlikdir.

Tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Turkiya, Armaniston, Afg'oniston, Eron kabi davlatlarda tog'lar katta maydonni egallagan. Arabiston yarimoroli davlatlarida cho'llar (Rub-el- Xali, Katta va kichik Nefut, Suriya), Eronda esa sho'rxok cho'llar (Dashti-Kevir, Dashti-Lut) katta maydonlarni egallagan. Umuman mintaqada cho'l hududlari bilan bir qatorda chalacho'llar va tog'li o'lkalar ham mavjud.

Osiyo mintaqalari orasida eng yuqori miqdorda quyosh radiatsiyasi kuzatiladi. Bu holat esa uning Yevrosiyodagi eng quruq mintaqaga aylanishiga sababchi bo'ladi. Iqlimiy jihatdan regionni shimolini subtropik, katta Janubi qismini esa tropik iqlim mintaqasi egallagan. Tog'larda balandlik iqlim mintaqasi vujudga kelgan bo'lib, bu yerad keskin kontinental iqlim shakllangan. O'rta yer, Qora va Kaspiy dengizbo'ylarida namlik darajasi yuqori bo'lsa, Arabiston yarim oroli eng quruq hudud sanaladi.

Janubi-g'arbiy Osiyo tuproqlari tarkibi ancha kambag'al bo'lib, bu holat dehqonchilik uchun noqulaylik tug'diradi. Qumli va toshloq cho'llar, tog'lar va o'ta quruq iqlim yer resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bu yerda asosan bo'z, kashtan va qizil tuproqlar tarqalgan.

Bu yerda suv resurslari nisbatan kambag'al bo'lib, asosiy suv manbaalari Eron yassi tog'ligi va Old Osiyo subregionlarida joylashgan. Dajla, Frot, Kura, Araks kabi daryolari, Savan, Van kabi ko'llari mintaqaning eng asosiy suv manbaalari hisoblanadi.

Regionning asosiy foydali qazilmasi neft va tabiiy gaz. Jahon neft zaxirasining 2G'3 qismi, Fors korfazi bo'yi davlatlariga to'g'ri keladi. Neft zahirasi bo'yicha dunyoda Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Quvayt, BAA etakchi o'rinda turadi.

Dunyoda topilgan 30 ta ulkan neft konining 15 tasi Fors korfaziga to'g'ri keladi. Gavar (Saudiya Arabistoni), Al-Burxon (Quvayt), Manifa (Saudiya Arabistoni) kabi konlardan sutkasiga 2 ming tonnagacha neft fontan bo'lib otilib chiqadi. Neft quduqlarining umumiy soni 5 ming ta **(1.2.2-jadval)**.

Tabiiy gazni qazib chiqarish bo'yicha Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron va BAA davlatlari etakchi. Fosforitning yirik konlari Iordaniyada (dunyoda 5-o'rinda). Kaliy tuzining yirik konlari Isroilda (5-o'rinda). Oltingugurtning yirik konlari Iroqda (dunyoda 4-o'rinda). Mis va xromning yirik konlari Eron va Turkiyada. Gidroenergiya resurslariga Afg'oniston, Gruziya va Armaniston boy. Turkiya va Kiprning O'rta Er dengizi sohillari tabiiy-rekreasion resurslarga boy. Shuning uchun u erlarda turizm rivojlangan.

1.2.2-jadval. Fors ko'rfazidagi asosiy yirik neft konlari o'ntaligi

№	Kon nomi	Kon tegishli bo'lgan davlat	Umumiy zahirasi, mlrd.t.
1.	Gavar	Saudiya	11,9
2.	Aga-Jari	Eron	10,0
3.	Katta Burgan	Quvayt	9,3
4.	Es-Saffaniya	Saudiya	3,5
5.	Kirkuk	Iroq	3,0
6.	Rumayla	Iroq	2,8
7.	Raudatayn	Quvayt	2,0
8.	Abkayk	Saudiya	1,6
9.	Gechsaran	Eron	1,5
10.	Marun	Eron	1,4

SHu bilan birga mintaqada o'ziga xos tarzda asosan tog' va cho'l ko'rinishlarini o'zida jamlagan holda bu ikki o'lkaga xos o'simlik va hayvonot olamiga ega. Ular orasida ayniqsa, o'rmon resurslari ahamiyatli bo'lib, unga boyligi jihatidan Turkiya, Kavkazorti davlatlari alohida ajralib turadi.

Dengizbo'yi va tog'larning go'zal manzaralari tabiiy rekreasion resurs

sifatida sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Turkiya, Kipr, Isroil, arab davlatlari ayniqsa mazkur xizmat ko'rsatish sohasi orqali katta valyuta tushumlariga ega bo'ladilar.

Demak, Janubi-g'arbiy Osiyoda mavjud bo'lgan yoqilg'i, metall va metallmas mineral resurslar bu yerda bir qator og'ir sanoat tarmoqlarining, Dajla, Frot, Kura, Araks kabi daryolari hamda kam miqdordagi qimmatbaho serunum yerlar dehqonchilikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Tabiiy rekreatsiya resurslar esa turizm rivojlanishiga turtki bo'ladi.

1.3. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari aholisi va mehnat resurslari

Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasi aholi tomonidan qadimdan o'zlashtirilgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu yer nafaqat jahonning qadimiy oykumenalaridan biri bo'lib qolmay, balki xristian va islom kabi jahon, yahudiylilik kabi mahalliy dinlarning vatani bo'lib ham hisoblanadi. Bu mintaqada ko'plab millatlar istiqomat qiladi, va mintaqada murakkab aholi takror barpo bo'lishiga aynan diniy va milliy omillar katta ta'sir ko'rsatadi (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval. Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasining demografik ko'rsatkichlari

KO'RSATKICHLAR	MIQDORI
Aholi soni	2012 y- 240 mln.k 2025y-300 mln.k 2050 y-402 mln.k
Tabiiy o'sish	19 % (24G'5)
Migratsion sal'do	2%
Bir yoshgacha bolalar o'limi	27%
Yosh tarkibi: bolalar	30%
kattalar	64%
qariyalar	6%
O'rtacha umr ko'rish darajasi	72 yosh
Urbanizatsiya darajasi	69%
O'rtacha zichlik	49 kishi
Aholi jon boshiga YaMM	10560 AQSH dollari

Kavkaz orti davlatlari, Isroil va Kiprdan tashqari barcha davlatlarda demografik portlash kuzatiladi. Aholi soniga ko'ra: Turkiya, Eron, Afg'oniston, Iroq, Saudiya Arabistoni kabilar etakchilik qiladi **(1.3.2-jadval)**. Baxrayn, Katar, Kipr kabi davlatlarda aholi soni 1 mln kishiga etmaydi. Regionning qolgan barcha davlatlarida (Kavkaz orti, BAA, Isroil, Iordaniya, livan, Amman, Quvayt, Falastin) aholi soni 2-7 mln kishi oralig'ida. Tug'ilish koeffisienti eng yuqori bo'lgan davlatlar: Yaman (43 %), Afg'oniston (42 %), Falastin (39 %), Iroq, Saudiya Arabistoni (35 %). Tug'ilish koeffisienti eng past bo'lgan davlatlar: Gruziya (9 %), Kipr (12 %), Armaniston, Ozarbayjon (14 %).

1.3.2-jadval. Janubi G'arbiy Osiyo davlatlarining demografik ko'rsatkichlari

№	Davlatlar	Aholisi, mln.kishi	Tabiiy o'sish, ‰	Urbanizatsiya darajasi, %
1.	Afg'oniston	31,6	2,7	18
2.	Baxreyn	0,7	1,5	81
3.	Isroil	6,4	1,2	91
4.	Iordaniya	5,9	2,5	70
5.	Iroq	26,8	2,7	73
6.	Eron	68,7	1,1	54
7.	Yaman	21,5	3,5	25
8.	Qatar	0,9	2,5	90
9.	Kipr	0,8	0,5	62
10.	Quvayt	2,4	3,5	-
11.	Livan	3,9	1,2	84
12.	BAA	2,7	1,5	78
13.	Ummon	3,1	3,3	11
14.	Falastin Avtonomiyasi	3,9	3,1	-
15.	Saudiya Arabistoni	27,0	2,2	77
16.	Suriya	18,9	2,3	50
17.	Turkiya	70,4	1,1	59
18.	Armaniston	3,1	4	64
19.	Ozarbayjon	9,2	11	54
20.	Gruziya	4,3	4	53

O'lim koeffisienti eng yuqori bo'lgan davlatlar: dunyo bo'yicha 9 %o. Afg'oniston (18 %o), Iroq va Yaman (10 %o). O'lim koeffisienti eng past davlatlar: BAA, Quvayt (2 %o), Baxraynda (3 %o). Chaqaloqlar o'limi eng yuqori Afg'onistonda (15,4 %o); eng kam Kipr va Isroilda (5%o).

15 yoshgacha bo'lganlar soni eng ko'p davlatlar: Yaman (48 %o), Iroq (47 %o), Falastinda (46 %o), Saudiya Arabistoni (43 %o).

16 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlar soni eng kam davlatlar: Gruziya (20 %o), Kipr (22 %o), Armaniston (24 %o).

64 yoshdan yuqori bo'lganlar soni eng ko'p va eng kam bo'lgan davlatlar: Gruziya (14 %o), Kipr, Katar (11 %o), BAA (1 %o), Quvayt (2 %o).

YaMM miqdori mintaqada eng yuqori davlatlar: Quvaytda (21500\$), Kiprda (21100\$), eng past: Yaman (730\$).

Aholi asosan mintaqa davlatlaridagi tabiiy sharoiti qulay hududlarida istiqomat qiladilar. CHo'l, chalacho'l hududlarida aholi deyarli yashamasa, daryo vodiylari hamda dengizbo'yida aholi zichligi yuqori. Masalan, Isroilning 60 % aholisi davlatning 10 % tabiiy sharoiti qulay hududlarida istiqomat qiladilar. Aholisining o'rtacha zichligi 1 km ga 37 kishi bo'lgani holda O'rta Yer, Qora va Kaspiy sohillarida 50-100 kishi, baland tog' va cho'llarda 1-10 kishiga to'g'ri keladi.

Umumiy aholining 60 % qishloqlarda istiqomat qiladi. Lekin, iqtisodi rivojlangan neftni eksport qiluvchi va ko'chirma kapitalizm davlatlarida aholining katta qismi shaharlarda yashaydilar. Urbanizatsiya darajasi Quvaytda 96 %, Isroilda 92 %, Katarda 80 %, Afg'oniston, Saudiya Arabistonida esa aholining urbanizatsiya darajasi ancha past.

Regionda joylashgan shaharlarning aksariyatida 10 mingdan ortiq aholi yashaydi. Mintaqa tarkibiga kiruvchi 12 davlat hududdida 21 dan ortiq millioner shahar va shahar aglomerasiyalari mavjud. Ular ichida Istambul va Tehron eng yirigidir **(1.3.3-jadvalga qaralsin).**

Aholisining etnik tarkibiga ko'ra Arabiston yarimoroli davlatlari bir millatli,

Turkiya, Iroq, Eron, Afg'oniston kabi davlatlar esa ko'p millatlidir. Aholisi asosan semit, eron va turk til guruhlariga tegishli bo'lib, semit guruhiga mintaqaning 12 davlatining asosiy aholisini tashkil etuvchi arablar kiradi.

1.3.3-jadval. Janubi-g'arbiy Osiyoning millioner shaharlari

Mintaqa davlatlari	Millioner shaharlar
Armaniston	Erevan
Gruziya	Tbilissi
Ozarbayjon	Boku
Iordaniya	Omman
Yaman	Sana
Livan	Bayrut
BAA	Abu-dabi, Dubay
Suriya	Damashq, Xalab
Saudiya Arabistoni	Jidda, Makka, Ar-Riyod
Iroq	Bag'dod, Basra, Mosul, Erbil
Turkiya	Adana, Anqara, Busra, Gaziatep, Izmir, Istanbul
Eron	Isfaxon, Karadj, Mashhad, Tabriz, Tehron, SHeroz

Eron guruhi tillarida forslar, pushtunlar, kurdlar so'zlashsalar turk guruhi tillari turklar, ozarbayjonliklar uchun xos. Umuman aholining 40 % eron, 30 % dan ortig'i semit, 25 % turk guruhlar tarkibiga kiruvchi tillarda so'zlashadilar. Ular bilan birgalikda grek, arman, gruzin kabi tillarda so'zlashuvchilar ham istiqomat qiladilar.

Irqiylar tarkibi jihatdan asosan Janubi yevropoid kichik irqi vakillari istiqomat qiladi. SHu bilan mongoloid va negroid irqi vakillari ham salmoqli miqdorga ega.

Mintaqada islom dini vakillari ko'pchilikni tashkil qiladi. Islom dinining

sunna mazhabi vakillari bilan birga Eron, Ozarbayjon kabi davlatlarda shialar ham istiqomat qiladilar. Bundan tashqari, Gruziya va Armanistonda xristianlik, Isroilda esa yahudiylik keng tarqalgan. Janubi-g'arbiy Osiyoda yuzaga kelayotgan asosiy notinchliklarning asl sababi ham diniy nizolar asosida kelib chiqmoqda. Makka va madina shaharlari musulmonlar uchun, Ierusalim shahri esa xristian, musulmon va iudaistlar uchun muqaddas joy sanaladi.

Mintaqa aholisining asosiy qismi xizmat ko'rsatish sohalarida band. Nomoddiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining turizm, qulay geografik o'rni ofshor zona sifatida bank ishi va moliya xizmatlari sohalarining rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Bundan tashqari, dengiz portlarida transport xizmatlari ko'rsatish ham yuqori darajada rivojlangan.

Umumiy migratsion sal'do musbat xarakterga ega bo'lishiga qaramay, Afg'oniston, Yaman kabi davlatlarda u manfiy ko'rsatkichga ega. Asosan neft qazib oluvchi hamda Turkiya, Isroil kabi davlatlarda emmigrantlar miqdori yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Neft sanoatida ishlash uchun Janubi, Janubi-sharqiy Osiyo va Afrikadan keluvchi migrant ishchilar hisobiga mintaqada erkaklar salmog'i ayollar salmog'idan ancha yuqori.

Asosan aholi takror barpo bo'lishiga ko'ra progressiv davlatlardan iborat bo'lgan mintaqada mehnat resurslar miqdoriy rivojlanishi yuqori bo'lishiga qaramay, ko'p hollarda sifatiy rivojlanish holati pastligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu holat savodxonlik darajasida yaqqol seziladi. SHu sababli mintaqaning fantalab tarmoqlarida xizmat qilish uchun asosan xorijiy mutaxassislar xizmatidan foydalaniladi.

2 Bob. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligining bugungi kun iqtisodiy-geografik tahlili

2.1. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligiga umumiy tavsif

Mintaqa davlatlari xo'jaligi rivojlanishi bir qator omillar ta'siri natijasida shakllanadi. Asosiy o'rinda albatta, xom-ashyo omili ta'siri yuqori hisoblanadi. Uning ta'sirida hozirgi kunda Turkiya, Isroil, neft eksport qiluvchi davlatlarda og'ir sanoatning bir qator tarmoqlari rivojlangan. Keyingi ta'sir etuvchi omil bu - tabiiy sharoit omilidir. Uning ta'siri natijasida mintaqada o'ziga xos qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlangan. Asosan ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi donchilik bilan bir qatorda bog'dorchilik, qo'y va echkichilik tarmoqlari davlatlar iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

SHu bilan bir qatorda mintaqada suv muammosining keskin ekanligi sug'orishning yangicha usullaridan foydalanish, intensiv dehqonchilikni rivojlantirish zaruratini tug'diradi. Hozirgi kunda Isroil, Saudiya Arabistoni davlatlari qishloq xo'jalik tajribasining ko'plab davlatlar tomonidan o'rganilib, ularning o'zlari uchun mos jihatlari o'zlashtirilmoqda. Ayniqsa, Isroilning tomchilab sug'orish texnologiyasi, Saudiya Arabistonining bug'doy yetishtirish, gulchilik sohalarida erishilgan yutuqlar jahon ommaviy axborot vositalari tomonidan ko'p bora yoritilgan.

Uchinchidan, qulay transport geografik o'rin holati. Suvaysh kanali, Ormuz, Bosfor, Dardanell bo'g'ozlari hamda Berlin - Bag'dod temir yo'li yaqinida joylashgan davlatlar transport xizmatlari ko'rsatish orqali o'z iqtisodiyotini rivojlantira olganlar. To'rtinchidan, mintaqa aholisining milliy an'analari. Ularning hunarmandchilik, gilamdo'zlik tarmoqlari Suriya, Turkiya kabi davlatlar iqtisodiyotida o'z o'rniga ega. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarining YaMMi tarmoq tarkibi tahlil qilinganda, ularni yaratuvchi tarmoqlar salmog'iga qarab ularni turli guruhlariga ajratish mumkin (**2.1.1-jadval**).

2.1.1-jadval. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari YaMMning tarmoq tarkibi

№	Davlatlar	YaMMning tarmoq tarkibi, %		
		Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmat ko'rsatish
1.	Afg'oniston	60	20	20
2.	Baxrayn	0,7	41	58,4
3.	Isroil	2,8	37,7	59,5
4.	Iordaniya	2,4	26	71,5
5.	Iroq	13,6	58,6	27,8
6.	Eron	11,2	40,9	48,7
7.	Yaman	15,5	44,7	39,7
8.	Qatar	0,3	58,2	41,5
9.	Kipr Grek hududi	4,1	19,9	76
	Turk hududi	10,6	20,5	68,9
10.	Quvayt	0,4	60,5	39,1
11.	Livan	12	21	67
12.	BAA	4	58,5	37,5
13.	Ummon	3,1	41,1	55,8
14.	Saudiya Arabistoni	4,2	67,2	28,6
15.	Suriya	25	31	44
16.	Turkiya	9,1	27	63,9
17.	Armaniston	22,9	36,1	41,1
18.	Ozarbayjon	14,1	45,7	40,2
19.	Gruziya	20,5	22,6	56,9

Ular orasida Baxrayn, Isroil, Iordaniya, Qatar, Quvayt, BAA, Ummon, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar industrial, Iroq, Eron, Yaman, Turkiya, Livan, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya kabi davlatlar industrial-agrar davlatlar hisoblansa, Afg'oniston tipik agrar davlat sanaladi.

Mintaqada asosiy rivojlangan sanoat tarmog'i neftni qazib olish va uni qayta ishlashdir **(2.1.2-jadval)**. Neft asosan Fors ko'rfazi va uning shelf zonasidan qazib olinadi.

2.1.2-jadval. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarining jahon xo'jaligida tutgan o'rni

Sanoat tarmog'i	Davlatlar	Miqdori	Jahonda tutgan o'rin
Neft qazib olish	Saudiya	468 mint	ikkinchi
	Eron	203 mln.t	to'rtinchi
	BAA	131 mln.t	sakkizinchi
	Quvayt	123 mln.t	o'ninchi
Gaz qazib olish	Eron	139 mlrd. m3	to'rtinchi
	Qatar	117 mlrd. m3	beshtinchi
	Saudiya	84 mlrd. m3	sakkizinchi
Qo'ng'ir ko'mir qazib olish	Turkiya	61 mln.t	sakkizinchi
Po'lat quyish	Turkiya	29,1 mln.t	o'ninchi
Birlamchi alyuminiy ishlab chiqarish	BAA	1,4 mln.t	ettinchi
	Baxrayn	0,9 mln.t	to'qqizinchi
Engil avtomobillar ishlab chiqarish	Eron	1,37 ming dona	o'ninchi
Azotli o'g'it ishlab chiqarish	Saudiya Arabistoni	1299 ming t	o'ninchi
Kaliyli o'g'it ishlab chiqarish	Isroil	2,1 mln.t	oltinchi
	Iordaniya	1,2 mln.t	ettinchi
Kimyoviy tola ishlab chiqarish	Turkiya	1,0 mln.t	sakkizinchi
Sement ishlab chiqarish	Turkiya	60,0 mln.t	to'rtinchi
	Eron	55,0 mln.t	ettinchi

Agar dunyo bo'yicha yiliga jon boshiga 500 kg neft qazib chiqarilayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Fors qo'ltig'i bo'yida 3,3 ming t. ni tashkil etadi. Fors korfazi bo'yi davlatlari yiliga 800 mln t.dan ortiq neft qazib oladi va eksport qiladi. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida Saudiya Arabistoni yetakchilik qiladi va jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Lekin neft qazib olish va qayta ishlash oralig'ida katta tafovvt seziladi. Qayta ishlanmagan neftning asosiy qismi G'arbiy Yevropa va AQSHga eksportga yuboriladi.

Uning faqat 1G'3 qismi (250 mln t) shu joyda qayta ishlanadi. Eng yirik neftni qayta ishlash korxonalari Saudiya Arabistoni, Eron, Quvayt va BAA da joylashgan. Asosiy neftni qayta ishlash korxonalari Al-jubayl va Yanbu(Saudiya Arabistoni), Ash-SHuayba (Quvayt), Ruvays (BAA) va Umm-Said (Qatar) shaharlarida joylashgan. Aynan shu mamlakatlar eksportining 90-95 % ini neft va neft mahsulotlari tashkil etadi. SHu bilan birga neft bilan bog'liq holda elektr energetika va kimyo sanoatlari ham rivojlanmoqda.

Jun-gazlama va ip-gazlama to qimachiligi Turkiyada, gilam to qish Eron va Afg'onistonda rivojlangan.

Qora metallurgiya sanoati Turkiya, Eron va Gruziyada, mashinasozlik Turkiya va Isroilda rivojlangan. Janubi- Garbiy Osiyoning eng yirik sanoat markazlari: Istambul, Tel-Aviv va Tehron shaharlarida; kichikroq sanoat markazlari: Anqara, Izmir, bog dod shaharlarida joylashgan. Mazkur sanoat markazlarini va aholini asosan IES lar, qisman GES lar energiya bilan ta'minlaydi. Eronda AQSH va Evropa iqtisodi qarishiligiga qaramay AES qurilmoqda.

Mintaqa mamlakatlarining ko'pchiligi agrar-industrial rivojlanish hususiyatiga ega, shuning uchun ularning iqtisodiyotida qishloq xojaligi muhim o'rin tutadi. Lekin kop mamlakatlarni qishloq xo jaligi oziq-ovqat bilan taminlay olmaydi. Bunga sabab: mexanizasiya va kimyodan kam foydalanish, shuningdek suv tanqislgidir. Zamonaviy sug orish usullaridan Isroil, Suriya, Iroq kabi davlatlar foydalanmoqda.

Qishloq xo'jaligining yetakchi salmog'i dehqonchilik hisoblanadi. Asosan

sug'orma dehqonchilik rivojlantirilgan. Asosan iste'mol uchun bug'doy, makajo'xori, arpa yetishtiriladi. O'rta yer dengizi davlatlarida sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik rivojlangan bo'lib, ular bilan bir qatorda zaytun mevalari yetishtirish katta o'rin egallaydi va aynan mazkur dehqonchilik turi bo'yicha mintaqa jahonda yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus mevalari, g'alla etishtirish, Eronda xurmo, sitrus mevalari, qand lavlagi, paxtachilik, Iroq, Suriya va isroilda paxta, tamaki va xurmo, Arabiston yarimoroli davlatlarida xurmo etishtirish rivojlangan.

Turkiyada angor echki boqish, Arabiston yarimoroli davlatlarida tuya boqish, Eron va Afg'onistonda qorako'lchilik rivojlangan. Transport tarmog'i yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mintaqa davlatlari iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Bu davlatlarda transportning barcha tarmoqlari rivojlangan bo'lib, Eron, Turkiya, Kavkaz orti davlatlarida temir yo'l transporti, Turkiya, o'rta Er dengizi bo'ylari va Kavkaz ortida avtomobil transporti katta ahamiyatga ega. Temir yo'llarning uzunligi Turkiyada 10 ming km, Eronda 5,2 ming km, Saudiya Arabistonida 700 km.

Quvur transporti Saudiya Arabistonida yaxshi rivojlangan. Shuningdek Eron, Iroq, Turkiya va Ozarbayjonda ham quvur transporti mavjud. Temir yo'llarning umumiy uzunligi: Afg'onistonda 11 km, Iordaniyada 600 km, Iroqda 3000 km, Isroilda 830 km, Livanda 408 km, Suriyada 1400 km. Afg'oniston, Baxrayn, Katar, BAA, Quvayt, Oman, Yaman, Kipr kabi davlatlarda temir yo'llar yo'q.

Janubi-G'arbiy Osiyoda asosan dengiz transporti rivojlangan bo'lib, u tashqi savdoda muhim rol o'ynaydi. Istanbul, Izmir, Bayrut, Xayfa, Adan mintaqaning eng katta yuk aylanmasiga ega port shaharlari hisoblanadi.

Fors korfazida faqat neft eksport qiluvchi maxsus portlar mavjud: Ras-Tannura, Obodon, El-Jubdil, El-Jubail, Bender-Abbas, Maskad kabilardir. Universal portlardan eng yiriklari: Jidda va Yanbu (Saudiya Arabistoni).

Tashqi savdo sheriklari AQSH, Yaponiya va Xorijiy Yevropa davlatlari hisoblanib, neft-gaz, neft-kimyo sanoati mahsulotlari, sun'iy matolar, kraskalar,

jun-mato (angorka), xurmo, sitrus, qorako'l, fosforit, kaliy tuzi kabilarni **eksport** qiladi. Asosiy **importi** esa mashina va jihozlar, qorametallurgiya mahsulotlari, oziq- ovqat, sanoat mahsulotlaridan iborat.

2.1.3-jadval. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarida aholi jon boshiga YaMM ko'rsatkichi

№	Davlatlar	Aholi jon boshiga YaMM, ming dollar hisobida
1.	Afg'oniston	860
2.	Baxreyn	33690
3.	Isroil	27010
4.	Iordaniya	5730
5.	Iroq	3330
6.	Eron	11470
7.	Yaman	2330
8.	Qatar	29400
9.	Kipr	30290
10.	Quvayt	21600
11.	Livan	13400
12.	BAA	49700
13.	Ummon	24530
14.	Falastin Avtonomiyasi	1500
15.	Saudiya Arabistoni	24020
16.	Suriya	4620
17.	Turkiya	13500
18.	Armaniston	5410
19.	Ozarbayjon	9020
20	Gruziya	4700
	Janubi-g'arbiy Osiyo	10560

Pul birligi: Iordaniya, Baxrayn, Quvayt, Iroqda-dinar; Oman, Saudiya Arabistoni, Yaman, Katar, Eronda-riol; Livan, Kipr, Suriyada-funt; BAA da - dirxam; Isroilda - shekel; Turkiya - lira; Afg'onistonda - afg'oni.

Mintaqa davlatlarida yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkich bo'yicha quyidagi holat namoyon bo'ladi **(2.1.3-jadval)**. Jadvaldan ko'rish mumkinki, Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaMM ko'rsatkichi bo'yicha o'ta boy davlatlar bilan bir qatorda qashshoq, kambag'al, o'rta darajada ta'minlangan davlatlar ham mavjud. Jadval ma'lumotlariga ko'ra Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida 10 tasida ko'rsatkichlari mintaq o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriligini ko'rish mumkin.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaMM ko'rsatkichi mintaq ko'rsatkichidan past bo'lgan 10 davlat - Afg'oniston, Iroq, Suriya, Livan, Falastin muxtoriyati, Afg'oniston, Yaman, Armaniston, Ozarbayjon va Gruziya iqtisodiyotining rivojlanishidagi bu holat ularning ko'p hollarda davlatlardagi siyosiy vaziyat, iqtisodiy geografik o'rin noqulayliklari asosida yuzaga keladi. Ayniqsa, Afg'oniston, Iroq, Falastin Muxtoriyati hududida so'nggi o'n yilliklarda yuz berayotgan harbiy harakatlar ularning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etgan.

Ushbu guruhlashtirish mezonlaridan kelib chiqqan holda Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarini ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish holatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish **mumkin**:

- Iqtisodi rivojlangan davlat - Kipr;
- “Ko'chirma kapitalizm” davlati - Isroil;
- “Yangi sanoatlashgan davlat” - Turkiya;
- Kapitalistik yo'nalishdagi yirik anklav davlatlar - Eron, Iroq;
- Ichki iqtisodiyotga moslashgan davlatlar - Suriya, Livan, Iordaniya, Yaman;
- Neft eksport qiluvchi davlatlar - Saudiya Arabistoni, BAA, Baxrayn, Quvayt, Qatar, Ummon;
- Sobiq sotsialistik davlatlar - Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon;
- Qoloq davlat - Afg'oniston.

Umuman, Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasi davlatlari xo'jaligi o'rganib chiqilganda uning rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga egaligini ko'rish mumkin:

Ishlab chiqarishning qoloqligi.

Qishloq xo'jaligining ekstensiv, kam tovar, past samaradorlikka ega monokul'tura ixtisoslashuviga egaligi. Iqtisodiyoti asosan tashqi bozor bilan bog'liqligi. Qayta ishlovchi tarmoqlarning yuqori bosqichi mavjud bo'lmagan, hunarmandchilik sohasining asosiy tarmoq ekanligi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarning past unumdorlikka egaligi. Mintaqa davlatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan tafovutlar bir qator omillar bilan bog'liq. Bular **quyidagilar**:

-**Tabiiy** resurslar, ayniqsa ular orasida mineral resurs turlari bilan ta'minlanish holati. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida Fors ko'rfazi va Kaspiybo'yi davlatlari neft va gazga, Old Osiyo hududi rangli metallarga boyligi bilan ajralib tursa, Yaman mintaqada davlatlari orasida mineral resurslarga kambag'alligi bilan ajralib turadi.

-**Davlatlardagi** siyosiy vaziyatning nisbatan beqaror ekanligi. Mintaqada ko'p yillardan buyon o'z yechimini topa olmayotgan Isroil-Falastin muammosi, Eronning yadroviy qurollanish dasturiga nisbatan qo'llanilayotgan turli cheklovlar, Iroq hududida olib borilgan harbiy harakatlar shular jumlasidandir. So'nggi yillarda qo'shni SHimoliy Afrikada yuzaga kelgan "arab inqilobi" ham mintaqada davlatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Suriya mojarosini qo'shni mintaqada notinchliklarining Janubi-g'arbiy Osiyodagi davomi sifatida ko'rish mumkin.

-**Xorijiy** investitsiyalarning yo'naltirilganlik holati. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida neftni eksport qiluvchi davlatlar asosiy o'rin tutadi. Bu davlatlarga 1980-yillardan boshlab katta miqdordagi xorijiy sarmoyalarning yo'naltirilganligi shu davrgacha rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlarning tez su'ratlarda iqtisodiy o'sishga erishishiga olib keldi.

Ushbu davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishi o'z hududlarida mavjud bo'lgan

boy tabiiy resurslar bilan bog'liq. Bu davlatlar neft, gaz, turli rangli metallar zahirasi ko'ra jahonda yetakchilik qiladilar. Bundan tashqari, iqtisodiy, transport geografik o'rin qulayliklari natijasida mintaqada xizmat ko'rsatish sohalari keng rivojlangan. Ayniqsa, sayyohlarning bu mintaqaga qiziqishlari yildan yilga ortib bormoqda. Turkiya, BAA, Baxrayn kabi davlatlar yil davomida sayyohlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatmoqda. Saudiya Arabistonida esa diniy turizm rivojlangan. Islom ahkomlaridan biri hisoblangan haj ziyoratini amalga oshirish uchun jahonning turli davlatlaridan keluvchi ziyoratchilar Makka va Madina shaharlarida haj amallarini bajaradilar.

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti rivojlanish holatiga ko'ra ular orasida iqtisodiy rivojlangan Kipr Respublikasi alohida ajralib turadi. Uning iqtisodiyotida nomoddiy soha tarmog'i - turizmning ahamiyati kuchli bo'lib, bunda mazkur davlatning geografik o'ri va tabiiy sharoiti katta rol o'ynagan. Moddiy soha tarmoqlaridan oziq-ovqat, metallurgiya, kimyo sanoatlarigina nisbatan katta salmoqqa ega.

"Ko'chirma kapitalizm" davlati hisoblangan Isroil Ikkinchi Jahon urushidan so'ng AQSH yordamida jahon siyosiy kartasida va xo'jaligida o'z o'rniga ega bo'lgan. U tipik industrial xarakterdagi davlat bo'lib, iqtisodiyotida yuqori texnologik ishlab chiqarish jarayonlari rivojlantirilgan aniq mashinasozlik tarmoqlari-elektronika va elektrotexnika sanoatlari, tibbiy jihozlar ishlab chiqaruvchi asbobsozlik sohalari, kimyo, yengil, oziq-ovqat kabi sanoat tarmoqlari rivojlangan. Bundan tashqari, mazkur davlat dondan tashqari, deyarli barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'z aholisini ta'minlay oladi.

Turkiya Respublikasi o'z iqtisodiyoti rivojida mahalliy tabiiy resurs imkoniyatlaridan to'liq foydalana olgan davlat hisoblanadi. U hozirgi kunda tog'-kon, ko'mir, qora metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati tarmoqlarida mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha jahondagi yetakchi davlatlar guruhiga kiradi. So'nggi yillarda davlatda iqtisodiyotida mashinasozlik sanoati bilan bir qatorda, an'anaviy tarmoqlar hisoblangan yengil va oziq-ovqat sanoati

tarmoqlarining ham salmog'i ortib bormoqda. Bunda jahonning yirik TMKlarining ta'siri katta bo'lib hisoblanadi. Eron va Iroq kapitalistik yo'nalishdagi yirik anklav davlatlar sifatida iqtisodiyoti rivojida tovar-pul munosabatlari shakllangan ilk kapitalistik munosabatlar shakllangan davrlarda o'z hududida mavjud bo'lgan asosiy mineral resursi - neftdan keng miqyosda foydalanganlar. Kichik salmoqdagi aholi bandligi mavjud bo'lgan neft sanoati davlatlar YaMMning asosiy qismini beradi.

Ichki iqtisodiyotga moslashgan davlatlar hisoblangan Suriya, Livan, Iordaniya, Yaman davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishi o'z hududlarida boy tabiiy resurslar bo'lishiga qaramay, aholisining turli diniy, milliy qatlam va guruhlariga mansubligi, ichki nizolar davlatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Xorijiy investitsiya oqimini pasaytiradi.

Neft eksport qiluvchi davlatlarga asosan Fors ko'rfazi hududida joylashgan Saudiya Arabistoni, BAA, Baxrayn, Quvayt, Qatar, Ummon davlatlarini kiritish mumkin. Asosan 1960-yillardan boshlab o'z hududida mavjud bo'lgan mineral resurs imkoniyatidan foydalanib boshlagan bu davlatlar tez fursatda jahonning iqtisodi rivojlangan davlatlari bilan tenglasha oladigan ijtimoiy farovonlik holatiga erisha oldilar. Sahrodagi "jannat"ni barpo etgan ushbu davlatlar farovonligi bevosita eksport qilinadigan neft salmog'iga bog'liq bo'lib, so'nggi yillarda mazkur yoqilg'i turi zahirasi kamayishi ular oldida yangi iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Kelajakda mazkur guruh davlatlari iqtisodiyotida quyidagi o'zgarishlar yuz berishi kutilmoqda:

- Iqtisodiyotni diversifikatsiyalashtirish;
- Xorijiy davlatlarga keng miqyosda kapital quyilmalar joylashtirish;
- Asosiy bandlik mavjud sohalarda faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni mahalliyashtirish, ya'ni mahalliy kadrlarni kasbiy mahoratini oshirish.

Armaniston, Ozarbayjon va Gruziya kabi sobiq sotsialistik tuzumga ega davlatlar o'z milliy iqtisodiyotlarini sobiq Ittifoq rasman o'z faolichtini tugatgan

davrdan boshlab qayta qurishga majbur bo'lganlar. Jahon iqtisodiyotida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga harakat qilayotgan mazkur davlatlar birinchi navbatda o'z tabiiy resurs imkoniyatlariga tayanmoqdalar. Ular orasida Kaspiybo'yi hududidagi boy neft konlariga ega bo'lgan Ozarbayjon iqtisodiyoti guruhning boshqa davlatlarinikiga qaraganda rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Qolgan ikki davlatda mavjud bo'lgan siyosiy muammolar ham ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

1970-yillarning o'rtalaridan boshlab yuz berayotgan siyosiy notinchliklar Afg'oniston iqtisodiyotining to'liq izdan chiqishiga sababchi bo'lgan. Hozirda Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasidagi yagona qoloq davlat hisoblangan Afg'onistonda ichki iste'mol uchun turli dehqonchilik mahsulotlari yetishtiriladi. SHu bilan bir qatorda hozirda u terrorizm, narkotrafik kabi jamiyat uchun illat hisoblangan holatlarning markazi bo'lib hisoblanmoqda. Jahon hamjamiyati tomonidan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar hech qanday natija bermayapti.

Demak, Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti ularning tabiiy resurs imkoniyatlari va davlatlarda mavjud bo'lgan siyosiy vaziyat bilan bevosita bog'liq ekan.

2.2. Turkiya va Armaniston davlatlari xo'jaligining o'ziga xos tomonlari

Turkiya Osiyo va Yevropa qit'alarida joylashgan davlat. Gretsiya, Bolgariya, Gruziya, Armaniston, Eron, Suriya, Iroq davlatlari bilan chegaradosh. Shimoliy qismini Qora dengiz, janubini O'rta dengiz, g'arbini Egey dengizi suvlari yuvib turadi. Marmar dengizi, Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari orqali mamlakatning Yevropa va Osiyodagi hududlari ajralib turadi.

Ma'muriy jihatdan 76 ta viloyatdan iborat. Davlat tuzumi - Respublika. Davlat boshlig'i - Prezident. U har 7 yilda saylanib, Qurolli Kuchlarning Bosh qo'mondoni vazifasini ham bajaradi. Hukumat boshlig'i - Bosh vazir. Qonun

chiqaruvchi hokimiyat - 2 palatali parlament (Buyuk Millat majlisi). Hududi-780,600 km kv. *Aholisining soni* 81,0 mln. kishi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,0 % ga teng. Din nuqtayi nazaridan islomga mansublar 99,8 % ni va boshqalar 0,2 % ni tashkil etadi. Davlat tili - turk tili. Urbanizatsiya darajasi 70,1 %ga teng.

Etnik tarkibi – 87 % i turklar, 10% i kurdlar, 1,7 % i arablar, greklar, armanlar va boshqa xalq vakillari. Mamlakatdan tashqarida 6 mln. turk yashaydi. Aholi zichligi 1 km² maydonga 105 kishi to'g'ri keladi. Shahar aholisi 71,2 %. Savodxonlik darajasi 98,3 % ga teng. Tabiiy o'sish har ming kishiga 15,9 kishidir. O'rtacha umr davri erkaklarda 69 yosh, ayollarda 75 yoshga teng. Aholining 14 yoshgacha bo'lgan qismi 28 % ni, 15-64 yoshgacha bo'lganlari 63 % ni, 65 yoshdan kattalari 8 % ni tashkil qiladi. Turkiya BMT va NATO ga a'zo.

Kichik Osiyo yarimoroli juda qadim zamonlardan boshlab shimol, janub, g'arb, sharq o'rtasida savdo va madaniy aloqalami bog'lab turuvchi ko'priklarni bo'lgan. Miloddan avvalgi 8-6 ming yilliklarda bu yerda dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Miloddan avvalgi 3 ming yillikda birinchi shahar-davlatlar paydo bo'lgan.

Jumladan, eng kuchlisi Xatti davlati bo'lgan. Keyinchalik bu hudud Iskandar Zulqamayn qo'l ostida bo'ladi, I asrda esa u rimliklar qo'lga o'tadi. Keyinchalik Yizantiya qaramog'ida bo'ladi. XI asrda turk saljuqiylar, undan keyin esa Usmonli turklar qo'lga o'tadi. 1320-yildan Usmonli turklar imperiyasi shakllandi.

1923-yil 29-oktabrdan Turkiya mustaqil respublika bo'ldi. Poytaxti - Anqara shahri. Mamlakat tarixiy obidalarga boy Masjidlar, ibodatxonalar, tarixiy muzeylar shular jumlasidandir. Mamlakatning g'arbiy va markaziy qismini Anadoli yassi tog'lari egallagan. Sharqiy qismida esa Armaniston yassi tog'lari yastanib yotibdi.

Asosiy daryolari - Yoshil, Irman, Dajla, Frot, Araks, Chorax. O'rmonlar 15 % maydonni egallaydi. Unda qayrag'och, archa, sarv daraxti, buk, eman, grab va butalar o'sadi. Hayvonlardan bug'u, olmaxon, yowoyi cho'chqa, bo'ri,

chiyabo'ri, ayiq, tog' echkisi, sirtlonlar yashaydi. Qushlardan qarg'a, burgut, laylak, qaldirg'och hamda ilon va kaltakesaklar keng tarqalgan.

Turkiya-**industrial-agrar** mamlakat. Mamlakatda xrom (dunyoda 3-o'rinda), surma, temir rudasi, volfram, mis, marganes, simob, boksit, oltingugurt qazib olinadi. Rangli va qora metallurgiya rivojlangan. Neftni qayta ishlovchi va kimyo zavodlarida mineral o'g'itlar, ishqorlar, uy-ro'zg'or, kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. Mashinasozlikda yengil avtomobillar, yuk mashinalari, avtobuslar, qishloq xo'jaligi mashinalari, dengiz kemalari, stanoklar, elektr jihozlar ishlab chiqariladi. Zamonaviy oziq-ovqat va to'qimachilik, qurilish materiallari va sement sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Teri-poyabzal, mebel va qog'oz ishlab chiqarish rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida bug'doy, arpa, suli, makkajo'xori, javdar, sholi, sabzavot ekinlari uetishtiriladi. *Tamaki yetishtirishda* dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. *Bog'dorchilik* va *uzumchilik* keng rivojlangan. Bundan tashqari, choy, yong'oq ham u etishtiriladi. *Chorvachilikda* qo'ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik rivojlangan.

Turkiya angor echkisi junini eksport qilish jihatidan dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Ipakchilik va baliqchilik rivojlangan. Turizm juda yaxshi rivojlangan. Shaharlari: Istanbul, Anqara, Izmir, Adana, Bursa, Konya, Antaliya. Istanbul - turizmning yirik markazlaridan biri. Unga miloddan avvalgi VII asrda asos solingan. Dastlab Rim imperiyasi poytaxti bo'lgan. U paytda Konstantinopol deb ham yuritilgan.

Hozirgi nomini 1930-yilda olgan. Shaharda muqaddas Sofiya muzeyi, ajoyib masjidlar bor. Yizantiya va musulmon arxitekturasida yodgorliklari ko'p. Turkiyaning transport tizimi taraqqiy etgan. Unda avtomobil transportining roli katta. Dengiz transporti rivojlangan.

Eksportida mashina va avtobuslar, oziq-ovqat, yengil sanoat, elektrotexnika mahsulotlari, tamaki, quruq mevalar, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetakchilik qiladi. *Importida* mashina uskunalari, xomashyo, transport vositalari va boshqalar

ustun turadi. *Pul birligi* - Turkiya lirasi.

Armanistonning geografik joylashuvi va tabiati o'zgacha. Rasmiy nomi- Armaniston respublikasi. Poytaxti-Erevan. Hududi-29800 km kv. Aholisi-3026900 kishi (2013). Tili-Arman. Sig'inuvchilarning asosiy qismi xristian diniga e'tiqod qiladi. Pul birligi-dram. G'arbiy Osiyo (Kavkazortining janubi) dagi davlat. Sharqda-Ozarbayjon, g'arbda-Turkiya, janubda-Ozarbayjon (Naxichevan) va Eron, shimolda-Gruziya bilan chegaradosh.

Chegarasining umumiy uzunligi-1254 km. Tog'li Qorabog' muammosi bo'yicha Ozarbayjon bilan jiddiy hududiy kelishmovchiliklar mavjud. Armaniston balandligi dengiz sathidan 1700 m bo'lgan Arman yassitog'ligida joylashgan tog'li o'lka. Eng yuqori nuqtasi-Aragats tog'i -4095 m.

Armanistonda yuzdan ortiq ko'llar bor. Eng yirigi-maydoni 1200 kmkv bo'lgan Sevan ko'li. Yirik daryolari-Kaspiy dengiziga quyiladigan Araks va Kura. Mamlakat mineral buloqlari bilan mashhur. Uncha ko'p bo'lmagan oltin, molibden, mis, rux zaxiralari bor. Ko'p miqdorda qurilish toshlari mavjud. Hududining 17% ini haydaladigan erlar, 20% ini yaylov va o'tloqlar tashkil qiladi.

Iqlimi-quruq kontinental. Armanistonning tog'oldi hududlari o'rmonlar, tog'lar va yaylovlardan iborat. Milliy qo'riqxonalarda qo'ng'ir ayiq, yovvoyi cho'chqa, chiyabo'ri va boshqa hayvonlar uchraydi. Davlat tuzilishi-unitar respublika. Davlat boshlig'i-prezident.

Iqtisodining asosiy sohalari:rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, metallni qayta ishlash, engil, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish. Qishloq xo'jaligida ishchi kuchining 31% band. Tsitrus mevalar, paxta etishtiriladi. Chorvachilik rivojlangan. Mashhur konyak va vino turlari ishlab chiqariladi. 2012 yilda YaIM miqdori 10066 mln (aholi jon boshiga-2991) dollarni tashkil etgan. Eksportga mashinalar va transport uskunalari, qora va rangli metall, kimyoviy o'g'itlar chiqariladi. Asosiy savdo hamkorlari-MDH davlatlari.

2.3. Gruziya va Ozarbayjon davlatlari xo'jaligining o'ziga xos tomonlari

Gruziya MDH ning janubida, Kavkazning g'arbida joylashgan. Maydoni 69,7 ming km² . Qora dengiz sohilining sharq, Kura daryosining o'rta oqimini, Alazani vodiysini va Kolxida pasttekisligini o'z ichiga olgan. Gruziya shimoldan Rossiyaning Krasnodar va Stovrapol o'lkalari, shuningdek, Qarachevo – Cherkes respublikasi, Kabardino – Balkar respublikasi, Shimoliy Osetiya respublikasi, Checheniya respublikasi, Ingush respublikasi (poytaxti Machas), Dog'iston respublikasi bilan Katta Kavkaz tog' tizmasi bilan chegaradosh. Sharqiy va janubi-sharqdan Ozarbayjon, janubdan Armaniston va Turkiya davlatlari bilan chegaradosh. Qora dengiz orqali Jaxon bozoriga chiqadi.

Gruziya hududi XIX-asr boshida Rossiya tomonidan bosib olingan. 1921 yil 25 fevralda respublika sifatida shakllandi. 1991 yil mustaqillikni qo'lga kiritgan (1922 yil ZSFSR va SOBIQ ITTIFOQ tarkibiga kirgan).

Ma'muriy hududiy tuzilishiga ko'ra ikkita respublika (Abhaziya va Adjariya), 63 ta rayondan tashkil topgan. 1992 yil Gamsaxurda prezident bo'lgan va diktatoligi uchun qochib ketgan. 1992 yildan 2004 yil yanvargacha E. Shevarnadze prezident, 2004 yil prezident istefo berdi va yangi prezident Saapashvili saylandi.

Gruziya Katta va Kichik Kavkaz tog' tizmalari oralig'ida joylashgan. Tuproqlari unumdor, Kolxida pasttekisligida subtropiklarning sariq va qizil tuproqlari va tog'–o'rmon tuproqlari (sur va qo'rg'ir) tarqalgan. Iqlimi tekisliklarda sernam subtropik,, tog'larda balandlik mintaqalari. Gruziya xo'jaligida iqlim resurslari muhim o'rin tutadi. Tabiiy resurslardan toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, nef't, merganes, marmar, polimetall, tuf uchraydi. Bular ichida marganes, marmar qazib olish muhim ahamiyatga ega.

Aholisi 5401000 kishi (1996 yil), 3 718 200 kishi (2017 yil). Aholi zichligi 1km² ga 65 kishi. Tug'ilish koeffitsenti 9 ‰ li, o'lim 9 ‰ li. Bir ayolga 1,1 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 20 %, 64 yoshdan yuqori

bo'lganlar 14 %. O'rtacha umr 75-80 yosh. YaMD 16 535 mln dollar (2014 yil), jon boshiga 4 286 dollar.

Milioner shaharlari-Tibilisi (1283 ming kishi). Qolgan shaharlarining hech qaysisida aholi 250000 kishiga etmaydi. Aholisi ko'p millatli bo'lsada, asosiy qismini gurizinlar, abhazlar, adjarlar, osetinlar, turklar tashkil etadi. Aholisining ko'p millatligiga sabablar: Evropa va Osiyo orasidagi savdo yo'llari tugunida joylashganligi; istelochi urushlarning ko'p bo'lganligi (turklar, eroniylar, arabar, ruslar) va hakoza. Kelgindilarning aralashib ketgani. Urbanizatsiya darajasi 60 % ga boradi.

Sanoat o'ziga xos rivojlanish asosiga ega. Og'ir sanoatida marganes va temir eritish muhim ahamiyatga ega. Gidroenergiya resurslariga boy, Armaniston va Ozarbayjonni qo'shib hisoblaganda ham gidroenergiya resursi ko'proq. Marganes rudasi chet ellarga ham sotiladi. Elektrovozlar (Tbilisi) va yuk avtomobillari ("Kolxida", Kutaisi shahri) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlardir. Gruziya og'ir sanoati cho'yan, prokat va quvurlar ishlab chiqaradi. Kimyo sanoati koks chiqindisi va tabiiy gazni qayta ishlab, azotli o'g'itlar ishlab chiqaradi.

Gruziyada agrosanoat majmuasi yaxshi rivojlangan, asosan choy, meva konservalari, vino, tamaki mahsulotlari ishlab chiqaradi. Choy sanoati MDH da ishlab chiqariladigan choyning 95 % ni beradi. Gruziya – MDH dagi sitrus mevalar eksport qiluvchi asosiy mamlakat.

Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti geografik o'rniga bog'liq. Aholisining asosiy qismi Kolxida pasttekisligida subtropik dehqonchilik, bog'dorchilik va o'zumchilik bilan shug'ullanadi. Asosiy subtropik ekinlar (choy va sitrus ekinlar) va o'zum, tamaki, mevalar, xurmo, qand lavlagi, efir moyli o'simliklar etishtiradi. Bulardan tashqari lavr va tung daraxtlari ko'p o'sadi. Kolxida botqoqliklarida evkalipt va bambuk o'sadi (evkalipt – nasos daraxt).

Gruziyaning sharqiy qismi qurg'oqchil bo'lganligi sababli bug'doy ekiladi va qo'ychilik rivojlangan. Alazaniy vodiysida o'zumning eng yaxshi navlari etishtiriladi. Chorvachiligidagi etakchi tarmoqlardan biri ipakchilik. Ipakchilik

mamlakatning g'arbiy qismida rivojlangan (Krosnov botanika bog'i, okeanologiya).

Gruziyadagi yirik sanoat markazlari – Tbilisi, Rustavi, Kutaisi, Botumi, Suxumi. Gruziya – MDH dagi turizm eng rivojlangan davlat hisoblanadi. Qora dengiz sohillarida bir qator kurort shaharlar mavjud: Botumi, Poti, Suxumi, Gaagra, Yangi Afon, Pitsunda. Botumi porti orqali neft quvurida keltirilgan Ozarbayjon nefti, Poti porti orqali marganes sotiladi.

Eksporti: marganes, choy, sitrus, tamaki, vino, lavr bargi, meva – chevalar, oziq-ovqat sanoati jihozlari, elektr energiyasi. Importi: po'lat, temir, g'alla, neft, gaz, paxta, avtomobillar pokrishkalari. Pul birligi – lari.

Ozarbayjon Respublikasi Zavkavkazening sharqida joylashgan bo'lib, hududi va aholisi soniga ko'ra Gruziya va Armanistondan katta. Maydoni 86,6 ming km² siyosiy – ma'muriy jihatidan Nanichevan avtonom respublikasi 64 rayondan tashkil topgan. Ozarbayjon shimoldan Dog'iston respublikasi, sharqdan Kaspiy dengizi, janubdan Eron, g'arbdan esa Armaniston, Gruziya bilan chegaradosh.

Iqtisodiy – geografik o'rni baholanganda Kaspiy dengizi sohillari yuqori baholanadi, chunki, Kaspiy orqali Rossiyaning markaziy rayonlari bilan, Qozog'iston, Tukrmaniston, Eron respublikalari bilan bog'langan. Ozarbayjon hududining asosiy qismini Qura – Araks pasttekisligi va Shirvan tekisligi egallagan. Ozarbayjon hududi Qora dengizdan kichik Kavkaz tog'lari orqali to'silganligi sababli iqlimi arid, sug'orib dehqonchilik qilishni talab etadi.

Asosiy daryolari Qura, Araks va uning irmoqlaridir. Minchechaur, Araks kabi suv omborlari va Samur – Apsheron kanalini qishloq xo'jaligidagi ahamiyati katta. Tabiiy boyliklardan Ozarbayjon hududida neft, tabiiy gaz, temir rudasi, alunit uchraydi. Asosiy boyligi neft, shuning uchun HGMT da Boku neftchilar shahri deb tan olinadi.

Neft asosan Apsheron yarim oroli va uning atrofidan, Kaspiy dengizi tubidan qazib olinadi. Neftyanie Kaini koni Ozarbayjondagi eng yirik gaz konidir.

Ozarbayjon neftining 60% i dengiz tubidan qazib olinadi. Shunga qaramay mamlakatda neft qazib olish yil sayin kamaymoqda. Sababi neft qazib olish Ozarbayjonda XIX asrning o'rtalaridan boshlangan, tabiiy gaz qazib olish esa 1928 yildan boshlangan. Shuningdek Boku nefti 5 ming metr chuqurlikdan qazib olinadi. Boku neftining tan narxi qimmat, lekin sifati yaxshi, toza aralashmalarsiz bo'lganligi uchun uni "oq neft" deyishadi.

Temir rudasi Dashkesan konidan qazib olinadi, uning bir qismi Ozarbayjonda, bir qismi Gruziyada eritiladi. Alunit esa Alunit tog'da qazib olinada va Sungant shahrida eritiladi. Mamlakatda boshqa tabiiy resurslar uchramaydi.

Aholisi – 7553000 (1996 y), 9 574 000 kishi (2015 y) bo'lib, aholi zichligi 1km² ga -111 kishi. Tug'ilish koeffitsenti 14 ‰ li, o'lim 6 ‰ li, bir ayolga 1,9 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 29 %, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16 %, o'rtacha umr 69-75 yosh. YaMD 63 983 mln. dollar (2015 y), jon boshiga 6 794 dollar.

Aholisining asosiy qismi ozarbayjonlar, qisman ruslar. Urbanizatsiya darajasi bo'yicha MDH ning Evropa qismida eng past ya'ni 54 % ni tashkil etadi. Ozarbayjon respublika sifatida 1920 yil tashkil topgan, lekin mustaqillikka erishgandan so'ng (1990y) bir qator milliy nizolar bo'lib o'tdi. Tog'li-Qorabog' avtonom oblast markazi Stepanakert-Xankendi bo'ldi va avtonom oblast bekor qilindi. Naxichevan va Dog'iston mojarolari.

Millioner shaharlari: faqat Boku – 1081000. Yirik shaharlari: Genja (Kirovobod)-282 000, Sumgant-236 000, Minchechaur-91 000 kishi. Davlat tili – ozarbayjon, boshqarilish shakli – respublika. Ozarbayjon respublikasi asosiy sanoat tarmoqlari: neftni qayta ishlash, ximiya sanoati va mashinasozlik sanoati bo'lib, ularning taraqqiy etishi neft qazib olish bilan bog'liq.

Neftni qayta ishlash sanoati Bokuda joylashgan bo'lib, u butun Ozarbayjon neftini hatto chet el neftini (Qozog'iston, Turkmaniston) qayta ishlaydi. Shuning uchun Boku ilgari Qora Boku deb atalgan. Qayta ishlangan neft mahsulotlari

Armaniston, Gruzziya, Rossiya va chet ellarga sotiladi.

Ximiya sanoati esa neft chiqindilaridan sintetik kauchuk, smola, shina, erituvchi moddalar va motor moylarini ishlab chiqaradi. Ximiya sanoatini yirik markazlari: Boku, Sumgant va Neftechalada joylashgan.

Mashinasozlik sanoati mahsulotlarining 25 % ini neft va gaz sanoati jihozlari: burg'u mashinalari va burg'u ustunlari, so'zuvchi burg'u moslamalari va nasoslari, burg'u quduq jihozlari tashkil etadi. Mashinasozlik sanoati yana priborlar (GRP, gaz kranlar va h.k), elektro va radio texnikalarni ishlab chiqaradi. Mashinasozlik sanoati markazlari: Boku, Mingechaur, Genja, Xankendi.

Qora metallurgiya sanoatining markazlari Sumgant shahri bo'lib, u erdan neft sanoati uchun quvurlar va prokat ishlab chiqariladi.

Aholi va sanoatni elektr energiyasi bilan ta'minlashda Minchechaur va Shamxor GES lari, Ali-Bayram (tabiiy gaz), Boku va Sumgant IES lari (mazut) ning ahamiyati yuqori.

Baliq ovlash Kaspiy sohillarida rivojlangan bo'lib, baliq-konserva sanoati Boku, Sumgant, Bank, Lenqoran shaharlarida mavjud.

Qishloq xo'jaligi intensiv harakterga ega. Dehqonchilik ustun turadi. Ozarbayjonda paxta, sholi, bug'doy, o'zum tamaki, choy etishtiriladi. Bog'dorchilik va ipakchilik rivojlangan. Choy va subtropik ekinlar Lenqoran pasttekisligda etishtiriladi. Katta va Kichik Kavkaz tog' etaklarida Ozarbayjon o'zumzorlarini 60 % i joylashgan. Talish tog'i.

Asosiy eksporti: neft, neft mahsulotlari, gaz, neft sanoati uskunalari va jihozdari, neft quvurlari, meva-cheva konservalari. Asosiy importi: metall, ko'mir, mashina, o'rmon. Ozarbayjonda dengiz bo'yi turizmi rivojlanmoqda. Pul birligi – manat.

2.4. Saudiya Arabistoni, Eron va Afg'oniston davlatlari xo'jaligining o'ziga xos tomonlari

Saudiya Arabistoni davlatining geografik joylashuvi va tabiati o'ziga xos. Davlatning rasmiy nomi-Saudiya Arabistoni Qirolligi. Poytaxti-Ar-riyod. Hududi-2 250000 kv km. Aholisi-28705000 kishi (2012). Davlat tili-arab. Davlat dini-islom. Pul birligi-saudiya riyoli. Bu davlat Janubi-g'arbiy Osiyoda joylashgan. Arabiston yarimorolining taxminan 2G'3 qismini va Qizil dengiz amda Fors qo'ltidagi qator qiroqbo'yi orollarini egallaydi. Janubda Yaman (chegara uzunligi 1458 km), shimolda Iroq (814 km), Iordaniya (744 km), Quvayt (222 km), janubi-sharqda Ummon-(676 km), BAA (457 km), sharqda Qatar bilan (60 km), chegaradosh. Quruqlikdagi chegaralari uzunligi-4431 km.

G'arbda mamlakat Qizil dengiz va Akaba qo'ltig'i hamda sharqda Fors qo'ltig'i bilan tutashib ketgan. Sohil bo'ylab chegara uzunligi-640 km. Mamlakat hududi asosan sahrodan iborat. Qirg'oq bo'ylab torgina vodiylar joylashgan. Janubi-g'arbida uncha katta bo'lmagan tog' tizmalari bor. Mamlakatning eng baland nuqtasi-Daka cho'qqisi-3353 m. Shimolda Suriya cho'lining bir qismi joylashgan.

Mamlakatning Janubi-sharqiy qismini katta sahro (Rub-el-Xali) egallagan. Mamlakatning suv resurslari juda kam. Hududining markaziy qismidagi bir necha darlar zga borib qurib qoladi. Mamlakat hududida boy neft, tabiiy gaz konlari mavjud, shuningdek, temir rudasi, mis, oltin, ham bor. Ishlov beriladigan erlar hududining faqatgina 1 % ini egallaydi. O'tloq va yaylovlar 39 % qismida joylashgan. Iqlimi kontinental, subtropik va tropik. Qizil dengiz va fors qo'ltig'ida marjonlarning 2000 dan ziyod turi bor, ayniqsa, qora marjonlar qimmat baholanadi. Davlat tuzilishi-mutlaq teokratik monarxiya. Mamlakat tarkibiga 13 ta viloyat kiradi. Davlat va hukumat boshlig'i-podshoh, ayni vaqtda u bosh vazir va qurolli kuchlar oliy bosh qo'mondoni hamdir.

Iqtisodining asosiy sohasi-neft qazib chiqaruvchi sanoat-(YaIM ning 35 %

va amalda eksportdan keladigan daromadlarning hammasini tashkil qiladi). Dunyoda neftning eng katta zaxirasiga ega. Saudiya arabistoni neftning eng yirik eksportchisi hisoblanadi va OPEKda etakchi rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi juda tez rivojlanmoqda (YaIM ning 10 % ni). Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari: bug'doy, arpa, tsitrus, xurmo (xurmo etishtirish bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda).

2012 yil YaIM miqdori 657 049 mln (aholi jon boshiga-25085) dollarni tashkil qiladi. Makka shahri butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi. Turizm katta daromad keltiradi. Eng muhim savdo hamkorlari:AQSh, Angliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya. Temir yo'llarining uzunligi-886 km, avtomobil yo'llari-74000 km (qattiq qoplamali yo'llari-35000 km). Yirik portlari-Jidda, Ras-Tannura, Yanbu.

Eron davlatining geografik joylashuvi va tabiati o'ziga xos. Rasmiy nomi-Eron Islom Respublikasi. Poytaxti-Tehron. Hududi-1648000 kv km. Aholisi-77242000 kishi (2013). Davlat tili-fors. Davlat dini-islom. Pul birligi-eron riali. Eron Janubi-G'arbiy Osiyoda joylashgan. G'arbda Iroq (chegara uzunligi 1458 km) va Turkiya (499 km), shimolda-Turkmaniston (992 km), Ozarbayjon (611 km), Armaniston (35 km), sharqda Afg'oniston (936 km), Pokiston (909 km) bilan chegaradosh.

Quruqlikdagi chegaralari uzunligi-5440 km. Janubda Fors va Ormuz qo'ltiqlari, shimolda Kaspiy dengizi bilan tutash. Eronning katta qismini Eron tog'ligi egallaydi. Shimolda Kaspiy dengizi qirg'oqlari bo'ylab Elbrus tog'lari qad ko'targan. Shimoli-Sharqida Kopetdog' tizmasi joylashgan. G'arbiy chegaralar bo'ylab shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon Zagros tog'lari cho'zilgan. G'arbda Huziston tekisligi joylashgan. Mamlakat markazida Dashti-Kabir va Dashti-Lut cho'llari joylashgan.

Eronda katta daryolar kam. Asosiy daryolari-Korun. Eng katta ko'li-Urmiya-shimoli g'arbda joylashgan. Neft va tabiiy gaz konlariga boy. Shuningdek, boshqa foydali qazilmalari:ko'mir, temir rudasi, xrom, mis, rux, qalayi, marganets, oltingugurt. Davlat tuzilishi respublika. Ma'muriy jihatdan 30 ta viloyat (oston) ga

bo'lingan.

Eron iqtisodida ishlab chiqarish vositalari, birinchi navbatda neft qazib olish va neftni qayta ishlash sanoati korxonalari davlat mulkini tashkil etadi. 2012 yil YaIM miqdori 483 780 mln (aholi jon boshiga 7211) dollarni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligi mamlakatning asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega emas. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Yaponiya, Italiya, Germaniya. Temir yo'llarining uzunligi-4850 km, avtomobil yo'llari-140072 km. Ichki suv yo'llari-904 km, Yirik portlari-Bender-Abbas, Enzeli. Eron Islom Respublikasi, Afg'oniston Islom Respublikasi, Pokiston Federativ Islom Respublikasi. Eron Janubi-g'arbiy Osiyoda joylashgan davlat. Arabiston dengizi, Kaspiy dengizi va Fors ko'rfazi suvlari qirg'oqlarini yuvib turadi. Iroq, Afg'oniston, Pokiston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Armaniston bilan chegaradosh.

Ma'muriy jihatdan 23 ta provinsiya (ostona)ga bo'linadi. Davlat tuzumi - Islom Respublikasi. Davlat boshlig'i Prezident hisoblansa ham, barcha muhim ishlarga shia dini rahbari - Oyatullo tomonidan fatvo beriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat - 2 palatali parlament.

Aholisining soni 80 mln. kishini (2013-yil iyul oyi), o'rtacha yillik o'sish sur'ati 0,9% ni tashkil etadi. Islom diniga mansublar 89% (asosan shialar), qolganlari boshqa dinlarga mansublar. *Davlat tili* - fors tili. *Etnik tarkibi*: forslar - 60%, ozarbayjonlar - 16%, kurdlar - 9% ni tashkil etadi, yana 600 ming armanlar, 100 ming yahudiylar, 80 ming lo'lilar, ko'plab arab, turkman, gruzin va boshqalar istiqomat qiladi. Mamlakatdan tashqarida 600 ming eronlik yashaydi. Aholi zichligi har km² ga salkam 50 kishi. Shahar aholisi 71,3%, tug'ilish har ming kishiga 20,6 kishi. O'lim darajasi har ming kishiga 8,4 kishidan to'g'ri kelib, tabiiy o'sish 1,2% ga teng.

O'rtacha umr davri erkaklarda 69 yosh, ayollarda 73 yoshga teng. Aholining tarkibida 14 yoshgacha bo'lganlar 38%, 15-64 yoshgacha bo'lganlar 55 %, 65 yoshdan kattalar 7 % ni tashkil qiladi. Eron BMT, XYF, OPEK ga a'zo.

1979-yil 1-aprel kuni mamlakat mustaqil Islom Respublikasi deb e'lon qilindi.

Mamlakat iqlimi subtropik va kontinental iqlim. Mamlakat hududining yarmini tog'liklar tashkil etadi. Eng baland joyi Demavend vulqonida (5604 metr). Mamlakat hududining shimoli-sharqiy qismida pasttekisliklar bor. Asosiy daryosi - Karun. Yer maydonining 11 % ini o'rmonlar egallagan bo'lib, unda eman, shamshod, temir daraxti, akatsiya, kashtan, zarang o'sadi. Mamlakat janubida past butalar mavjud.

Hayvonlardan tog' echkisi, qo'y, bo'ri, tulki, sirtlon, qoplon, ayiq, olmaxon, bug'u, to'ng'izlar bor. Qushlardan flamingo, kaklik va boshqalar yashaydi. Eron - industrial-agrar mamlakat. Qishloq xo'jaligida bug'doy ko'p u etishtiriladi. Haydaladigan yerlar 10%, doimiy donli ekinlar 1%, yaylovlar 27%, o'rmonlar 11 %, boshqa yerlar 51 % ni egallaydi.

Sug'oriladigan yerlar maydoni 94 ming km². Arpa, sholi, sabzavot ekinlari, sitrus o'simliklari, shaftoli, anjir, anor, xurmo kabilar u etishtiriladi. Qandlavlagi, choy, shakarqamish, tamaki yetishtirish ham rivojlangan. Chorvachilik eksportbop xususiyatga ega. Qo'ychilik, echkichilik, qoramolchilik, tuyachilik rivojlangan. Mamlakat qora ikra eksporti bo'yicha jahonda 1-o'rinda turadi. Dur yig'ish ham mavjud.

Eron jahonda neft va tabiiy gaz bilan eng yaxshi ta'minlangan. Shuningdek, temir rudasi, ayrim rangli metall konlariga ham ega. Metallurgiya sanoati shakllangan. Sanoatning plastmassa va soda, oltingugurt va ammiak, sun'iy gaz, ishqorlar ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlangan. To'qimachilik, oziq-ovqat, tamaki fabrikalari bor. Sement va qurilish materiallari ishlab chiqariladi. Mamlakatda yig'ma avtomobillar, traktorlar, sovitchiklar, konditsionerlar, televizorlar, magnitofonlar, radiopriyomniklar, uy-ro'zg'or va elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqariladi. Turizm ancha taraqqiy etgan. Yirik shaharlari: Tehran, Mashhad, Isfaxon, Tabriz, Sheroz, Abadan.

Afg'oniston davlatining geografik joylashuvi va tabiati tog'li xarakterligi bilan ajralib turadi. Rasmiy nomi-Afg'oniston Islom Respublikasi. Poytaxti-Kobul.

Hududi-652090 kv km. Aholisi-33 397 058 kishi (2012). Davlat tili-doriy (50%) va pushtun (35%). Davlat dini-islom. Pul birligi-afg'oni. Janubi-G'arbiy Osiyoning sharqidagi davlat. Janubda Pokiston (chegara uzunligi 2430 km), g'arbda-Eron (936 km), shimolda-Tojikiston (1206 km), Turkmaniston (744 km), O'zbekiston (137 km), sharqda Xitoy (76 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi 5529 km. Tog'lar mamlakat hududining 75% egallaydi.

Asosiy tog' tizimi-Hindiqush, Afg'onistonning shimoli-sharqida joylashgan. Afg'onistonning eng yuqori nuqtasi-Novshak tog'i (7475 m). Shimoli va janubi-g'arbida Baqtriya, Registon, Dashti-Margo tekisliklari mavjud. Yirik daryolari-Amudar, Hilmend, Herirud, Qobul. Foydali qazilmalari-tabiiy gaz, neft, ko'mir, mis, oltingugurt, rux, temir rudasi, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar. Haydaladigan erlar-12 %, yaylov va o'tloqlar-46 %, o'rmon va butazorlar-3 %. Iqlimi kontinental, subtropik. Afg'oniston 30 viloyatga bo'lingan. Davlat boshlig'i-Prezident.

Iqtisodiy asosan qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan. 2012 yilda YaIM miqdori 19847 mln (aholi jon boshiga 622) dollarni tashkil etgan. Eksportga tabiiy gaz, meva va yong'oq, qo'lda to'qilgan gilamlar, movut, paxta, qorako'l chiqariladi. Oziq-ovqat va neft mahsulotlari import qilinadi. Sanoati sust rivojlangan. Qishloq xo'jaligida natural xo'jalik hukmronlik qiladi. Temir yo'llarining uzunligi-24,6 km, avtomobil yo'llari-21 000 km. Asosan Amudaryodan o'tadigan suv yo'llari uzunligi-1200 km (500 tonnagacha bo'lgan kemalar suzishi mumkin).

Afg'oniston Islom Respublikasi Yevrosiyo materigi ichkarisida joylashgan bo'lib, Eron, Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston va Pokiston davlatlari bilan chegaradosh. Ma'muriy jihatdan 29 ta viloyatga bo'linadi. Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat - Loyya Jirg'a va Milliy Kengash. Davlat boshlig'i - Prezident.

Relyefi tog'li. Iqlimi shimolda kontinental, janubda tropikdan subtropikgacha o'zgarib boradi. Tabiiy boyliklari yetarli o'rganilgan emas.

Aholi soni 32,7 mln. kishi, zichligi 1 km² ga o'rtacha 48 kishi. Har 1000

kishiga tugʻilish 37 va oʻlim 19 kishidan toʻgʻri keladi. Aholining 0-14 yoshdagilari 43 %, 65 va undan yuqori yoshdagilari 3 % ni tashkil qiladi. Oʻrtacha umr erkaklarda 43, ayollarda 42 yoshga teng. Aholisining 22,9 % i shaharlarda yashaydi.

Aholisi koʻp millatli. Asosiy millat vakillari boʻlgan pushtunlar bilan bir qatorda tojiklar, oʻzbeklar, turkmanlar, xazorliklar va boshqalar istiqomat qiladilar. Oʻzbeklar shimoliy va shimoli-gʻarbiy provinsiyalarda, tojiklar shimoliy va shimoli-sharqiy provinsiyalarda keng tarqalgan. Turkmanlar Badkiz provinsiyasida, xazorliklar Bomiyon va Hirot provinsiyalarida istiqomat qiladilar.

Xoʻjaligi 1979-yildan boshlab deyarli 10 yil davom etgan fuqarolar urushi tufayli achinarli ahvolga tushib qolgan. YIM ning 36% i qishloq xoʻjaligida, 24% i sanoatda, 39% i xizmat koʻrsatish sohasida ishlab chiqariladi. YIM 2012- yilda 40,7 mlrd. AQSH doll.ni tashkil etdi (sotib olish paritetini hisobga olganda).

Sanoat tarmoqlaridan neft qazib olish, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil va oziq-ovqat tarmoqlariga tegishli korxonalar Kobul, Mozori-Sharif, Maymana, Qunduz va boshqa shaharlarda faoliyat koʻrsatmoqda.

Hozirgi vaqtda xalqaro hamjamiyat ajratgan moliyaviy yordamlar asosida zamonaviy sanoat korxonalari qurilmoqda.

Qishloq xoʻjaligining asosini sugʻorma dehqonchilik tashkil etadi. Keyingi yillarda yuz bergan siyosiy beqarorlik ekinlar tarkibiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Sugʻorma yerlarning katta maydonlarida norasmiy guruhlar tomonidan koʻknori oʻstirilib, qoradori va geroi ishlab chiqarish uchun asos tayyorlanmoqda. Afgʻonistonning keyingi yillarda qoradori va geroi yetkazib berish boʻyicha yetakchilikni qoʻldan bermay kelayotganligi qoʻshni davlatlar, shu jumladan Oʻzbekistonda ham notinchlik keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda, dehqonchilikda boshqali ekinlar va paxta ekish, meva va uzum yetishtirish muhim rol oʻynaydi. Chorvachilik ekstensiv xususiyatga ega. Qoʻychilik va echkichilik birmuncha yaxshi rivojlangan.

Transport tarmoqlari ichida avtomobil transporti muhim ahamiyat kasb

etadi. Chunki tashilgan barcha yuk va yo'lovchilarning aksariyat qismi aynan avtomobil transportiga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda O'zbekiston quruvchilari yordamida ko'plab daryolarda buzilgan ko'priklar qaytadan tiklandi. Undan tashqari, bir qator yangi ko'priklar ham barpo qilindi. Havo transporti endi-endi rivojlantirilmoqda. Mamlakatning Kobul, Mozori-Sharif, Qandahor va Hirot shaharlarida aeroportlar ishlab turibdi.

Afg'oniston O'zbekiston bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga intilmoqda. Bu o'rinda qator ishlar ham amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tish zarur (shimoliy hududlarni yoqilg'i, elektroenergiya va suv bilan ta'minlash va boshqa tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda). Lekin ushbu va boshqa tadbirlarni amalga oshirishga tolibonlar to'sqinlik qilmoqda.

Xulosa va tavsiyalar:

Xulosa qilib aytganda, Janubi-G'arbiy Osiyo subregioni davlatlari xo'jaligi rivojlanishi bir qator omillar ta'siri natijasida shakllanadi. Asosiy o'rinda albatta, **xom-ashyo** omili ta'siri yuqori hisoblanadi. Uning ta'sirida hozirgi kunda Turkiya, Isroil, neft eksport qiluvchi davlatlarda og'ir sanoatning bir qator tarmoqlari rivojlangan.

Keyingi ta'sir etuvchi omil bu-**tabiiy sharoit** omilidir. Uning ta'siri natijasida mintaqada o'ziga xos qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlangan. Asosan ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi donchilik bilan bir qatorda bog'dorchilik, qo'y va echkichilik tarmoqlari davlatlar iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

SHu bilan bir qatorda mintaqada suv muammosining keskin ekanligi sug'orishning yangicha usullaridan foydalanish, intensiv dehqonchilikni rivojlantirish zaruratini tug'diradi. Hozirgi kunda Isroil, Saudiya Arabistoni davlatlari qishloq xo'jalik tajribasining ko'plab davlatlar tomonidan o'rganilib, ularning o'zlari uchun mos jihatlari o'zlashtirilmoqda. Ayniqsa, Isroilning tomchilab sug'orish texnologiyasi, Saudiya Arabistonining bug'doy yetishtirish, gulchilik sohalarida erishilgan yutuqlar jahon ommaviy axborot vositalari tomonidan ko'p bora yoritilgan.

Uchinchidan, **qulay transport geografik o'rin holati**. Suvaysh kanali, Ormuz, Bosfor, Dardanell bo'g'ozlari hamda Berlin - Bag'dod temir yo'li yaqinida joylashgan davlatlar transport xizmatlari ko'rsatish orqali o'z iqtisodiyotini rivojlantira olganlar. To'rtinchidan, mintaqa **aholisining milliy an'analari**. Ularning hunarmandchilik, gilamdo'zlik tarmoqlari Suriya, Turkiya kabi davlatlar iqtisodiyotida o'z o'rniga ega. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarining YaMMi tarmoq tarkibi tahlil qilinganda, ularni yaratuvchi tarmoqlar salmog'iga qarab ularni turli guruhlariga ajratish mumkin.

Ular orasida Baxrayn, Isroil, Iordaniya, Qatar, Quvayt, BAA, Ummon, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar industrial, Iroq, Eron, Yaman, Turkiya, Livan,

Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya kabi davlatlar industrial-agrar davlatlar hisoblansa, Afg'oniston tipik agrar davlat sanaladi. Mintaqada asosiy rivojlangan sanoat tarmog'i neftni qazib olish va uni qayta ishlashdir. Neft asosan Fors ko'rfazi va uning shelf zonasidan qazib olinadi.

Agar dunyo bo'yicha yiliga jon boshiga 500 kg neft qazib chiqarilayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Fors qo'ltig'i bo'yida 3,3 ming t. ni tashkil etadi. Fors korfazi bo'yi davlatlari yiliga 800 mln t.dan ortiq neft qazib oladi va eksport qiladi. Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari orasida Saudiya Arabistoni yetakchilik qiladi va jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Lekin neft qazib olish va qayta ishlash oralig'ida katta tafovvt seziladi. Qayta ishlanmagan neftning asosiy qismi G'arbiy Yevropa va AQSHga eksportga yuboriladi.

Qishloq xo'jaligining yetakchi salmog'i dehqonchilik hisoblanadi. Asosan sug'orma dehqonchilik rivojlantirilgan. Asosan iste'mol uchun bug'doy, makajo'xori, arpa yetishtiriladi. O'rta yer dengizi davlatlarida sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik rivojlangan bo'lib, ular bilan bir qatorda zaytun mevalari yetishtirish katta o'rin egallaydi va aynan mazkur dehqonchilik turi bo'yicha mintaqa jahonda yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus mevalari, g'alla etishtirish, Eronda xurmo, sitrus mevalari, qand lavlagi, paxtachilik, Iroq, Suriya va isroilda paxta, tamaki va xurmo, Arabiston yarimoroli davlatlarida xurmo etishtirish rivojlangan.

Turkiyada angor echki boqish, Arabiston yarimoroli davlatlarida tuya boqish, Eron va Afg'onistonda qorako'lchilik rivojlangan. Transport tarmog'i yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mintaqa davlatlari iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Bu davlatlarda transportning barcha tarmoqlari rivojlangan bo'lib, Eron, Turkiya, Kavkaz orti davlatlarida temir yo'l transporti, Turkiya, o'rta Er dengizi bo'ylari va Kavkaz ortida avtomobil transporti katta ahamiyatga ega. Temir yo'llarning uzunligi Turkiyada 10 ming km, Eronda 5,2 ming km, Saudiya Arabistonida 700 km.

Quvur transporti Saudiya Arabistonida yaxshi rivojlangan. Shuningdek Eron,

Iroq, Turkiya va Ozarbayjonda ham quvur transporti mavjud. Temir yo'llarning umumiy uzunligi: Afg'onistonda 11 km, Iordaniyada 600 km, Iroqda 3000 km, Isroilda 830 km, Livanda 408 km, Suriyada 1400 km. Afg'oniston, Baxrayn, Katar, BAA, Quvayt, Oman, Yaman, Kipr kabi davlatlarda temir yo'llar yo'q.

Janubi-G'arbiy Osiyoda asosan dengiz transporti rivojlangan bo'lib, u tashqi savdoda muhim rol o'ynaydi. Istanbul, Izmir, Bayrut, Xayfa, Adan mintaqaning eng katta yuk aylanmasiga ega port shaharlari hisoblanadi.

Fors korfazida faqat neft eksport qiluvchi maxsus portlar mavjud: Ras-Tannura, Obodon, El-Jubdil, El-Jubail, Bender-Abbas, Maskad kabilardir. Universal portlardan eng yiriklari: Jidda va Yanbu (Saudiya Arabistoni).

Kelgusida Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari xo'jaligini rivojlantirish va joylashtirishda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Subregion resurslaridan oqilona foydalanish;
- Xo'jalikni barcha tarmoqlariga FTI yutuqlarini o'z vaqtida joriy etish;
- Suv resurslaridan majmual foydalanish;
- Ishlab chiqarishning barcha yo'nalishlari doirasida ekologik qonun va qonuniyatlarga amal qilish;
- Subregion davlatlari xo'jaligi taraqqiyoti o'rtasidagi farqlarni barqarorlashtirish;
- Global muammolarni bartaraf etishda hamkorliklarni yo'lga qo'yish;
- Ishlab chiqarish tarmoqlarini oqilona joylashtirish va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev -Erkin va Farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.:O'zbekiston. 2016. y. 56-b.
2. Sh.Mirziyoev-Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston. 2017 y. 488-b.
3. Sh.Mirziyoev-Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: O'zbekiston. 2017 y. 592-b.
4. Sh.Mirziyoev -Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.:O'zbekiston. 2017. 48-b. Konstitutsiyaning 24 yilligiga bag'ishlangan nutqi, 2017 y. 7-dekabr.
5. Sh.Mirziyoev-Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. 1918 yil, 23 dekabr. "Xalq so'zi" gazetasi.
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.-T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
7. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.- 380 b.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T.: Sharq NMK, 1997. – 63 b.
9. Abirqulov Q.N., Hakimov N.X., Rajabov N. Iqtisodiy geografiya o'quv qo'llanma. Toshkent. 2006. TDIU. 97 .b.
10. Baxritdinov B.A. va boshqalar. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. T.: 2008.
11. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi. –T.: «Mumtoz so'z» nashriyoti, 2010. 348- bet.
12. Soliev A., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. T.: «Guliston»,1999.181-b.
13. A.Soliev O'zbekiston geografiyasi. T.:Universitet. 2014 y.
- 14.Sotsialno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. - M.: Drofa, 2001.

15. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1-9-jildlar.- T.: «Davlat ilmiy nashriyoti». 2002-2005 yillar.
16. Lipets Yu.G., Pulyarkin V.A, Shlixter S.B. Geografiya mirovogo xozyaystva. - M.: Gumanit. Izd. tsentr Vlados, 1999.
17. Maksakovskiy V.P. Geograficheskaya kartina mira. Kniga II. Regionalnaya xarakteristika mira. - M.: Drofa,2004. - 490 s.
18. Maksakovskiy V.P. Obhaya ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya. Kurs lektsiy. Chast I. - M.: Vlados, 2009.
19. Rodionova I.A. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira. - M.: Yurayt, 2012.
20. Qayumov A, Safarov I, Tillaboeva M. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 9-sinf uchun darslik. - T.: O'qituvchi, 2010.
21. Ekonomicheskaya, sotsialnaya i politicheskaya geografiya: mir, regiono', strano'. - M.: Ekon - Inform, 2008.
22. www.geographyabout.com
23. www.tsue.uz - Universitet sayti.
24. www.hamkor.uz.
25. www.stat.uz.
26. www.ziyonet.uz.

